

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 84 (1683), 2026-yil 29-aprel, chorshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



FARG‘ONA SO‘NMAS AZM-U SHIJOAT, BOY ILM-U MA‘RIFAT, YUKSAK VATANPARVARLIK BILAN BARQAROR TARAQQIYOT MAKTABINI YARATMOQDA

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Farg‘ona viloyatiga tashrifining ikkinchi kunida ijtimoiy-iqtisodiy komplekslar faoliyati bilan tanishib, hududni rivojlantirish masalalari yuzasidan yig‘ilish o‘tkazdi.



Xalqimiz azaldan “ezgu niyat, ezgu so‘z va ezgu amal” tamoyiliga amal qilib yashagan. Ajdodlarimiz qariyb uch ming yil avval yaxshi niyat so‘zga aylanib, amaliy ifoda topishi inson hayotini baxtga burkashi haqida yozib qoldirgan. Hayotning o‘zgarishlarida ham o‘zgarishlar qoidasiga amal qilganlarning iqbol doim baland bo‘lgan. Ana shu qadim haqiqat yangi O‘zbekistondagi o‘zgarishlarda ham o‘z aksini topib bormoqda. Bugun xalqimiz yorug‘ niyat bilan yashab, ezgu amallarga qo‘l urmoqda.

Xuddi shuningdek, mamlakatimiz yetakchisi Farg‘ona viloyatiga avvalgi tashriflari chog‘ida bir qancha ezgu tashabbuslar, katta loyihalarni boshlab bergan edi. O‘tgan qisqa davrda ushbu ezgu so‘z amaliy ifoda topdi. Natijada viloyat ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yuksalish yo‘lida dadil bormoqda.

Yangilanishlar jarayonida mehnatkash, oqko‘ngil va olijanov viloyat ahlining boy ilmu ma‘rifati, yuksak vatanparvarligi va hamjihatligi qo‘l kelayotgani ham rost. Vodiylilik so‘nmas azmu shijoati bilan bugun zamonaviy ishlab chiqarish majmualari, ta‘lim, tibbiyot va madaniyat maskanlari, AT parklari, “Yangi O‘zbekiston” turar joy massivlarini barpo etishda faol qatnashyapti. Odamlarning dunyoqarashi o‘zgarib, farovonligi ortib boryapti.

Farg‘ona shahrida tashkil etilgan “Farg‘ona ekspozitsiyasi” xalqaro ko‘rgazmalar

markazi ana shu yangilanishlar, qo‘lga kiritilayotgan yutuqlarga hamohang tarzda viloyat iqtisodiy barqarorligi uchun katta tirgak yaratishi shubhasiz. Chunki investitsiya, avvalo, davlatning o‘z kelajagiga ishonchi, barqaror taraqqiyotga intilishning moddiy ifodasidir. U faqat iqtisodiy o‘zgarishlar vositasi emas, balki sivilizatsion tanlovdir.

Keyingi yillarda mamlakatimizda investitsiya strategik barqarorlikni ta‘minlash mexanizmi aylanayotgani boisi ham shunda. “Yangi O‘zbekiston” konsepsiyasi doirasida investitsiya siyosati miqdoriy o‘zgarishlar sifatli transformatsiyaga o‘tmoqda.

Shu ma‘noda, markaz faoliyati viloyatning iqtisodiy salohiyatini keng namoyish etish, sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish, eksportni rag‘batlantirish va investorlar uchun qulay servis muhitini yaratishda katta qulaylik taqdim etadi. Sodda qilib aytganda, markaz ko‘rgazmalar o‘tkaziladigan joy bo‘lish bilan bir qatorda, tadbirkorlar va investorlar uchun yaxlit muloqot maydonchasi vazifasini bajaradi. Ya‘ni bu yerda tadbirkorlar uchun qulay ishlab chiqarish ekotizimi yaratilgan. Bu tizim davlat idoralari, ishlab chiqaruvchilar, eksportchilar va investorlar bir maydonda uchrashib, amaliy hamkorlikni yo‘lga qo‘yishi, o‘z navbatida, davlat va biznes o‘rtasidagi to‘siqlarning olib tashlanishiga xizmat qiladi.

Besh gektar maydonni egallagan majmuada 200 dan ortiq ishlab chiqaruvchi

korxonalar mahsulotlarini namoyish etish imkoniyati yaratilgan. 8 qavatli binoning dastlabki ikki qavatli savdo, investitsiya va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlovchi tashkilotlar uchun ajratilgan. Yuqori qavatlarda esa investorlar va biznes vakillari hamkorlikda faoliyat yuritishi uchun qulay sharoit yaratilgan.

Qariyb 147,5 milliard so‘m hisobiga barpo etilgan muhtasham majmuada 15 ta tarmoq yo‘nalishi bo‘yicha yil davomida doimiy ko‘rgazma-yarmarka faoliyat yuritadi. Umuman olganda, majmua faoliyati “Biznes uchun xizmat” tamoyili asosida sanoat kooperatsiyasini kengaytirish, mahalliy mahsulotlar eksportini rag‘batlantirish, xorijiy investorlarni jalb etish orqali viloyatning iqtisodiy salohiyatini global darajaga ko‘tarishga zamin yaratadi.

Farg‘ona tajribasining samaradorligini inobatga olgan holda, bunday zamonaviy ko‘rgazma zallarini Toshkent shahri, Buxoro, Jizzax va Samarqand viloyatlarida ham barpo etish rejalashtirilgan.

Davlatimiz rahbari markazda viloyatning sanoat va xizmat ko‘rsatish salohiyatiga oid ko‘rgazmalar bilan tanishdi. Mashinasozlik, elektrotexnika, zargarlik, charm-poyabzal, hunarmandchilik, tibbiyot va farmatsevtika kabi tarmoqlar mahsulotlari namoyish etildi.

Shuningdek, hudud uchun strategik ahamiyatga ega yirik investitsiya loyihalari

taqdimoti o‘tkazildi. Prezidentimiz investorlar bilan suhbatlashdi.

Mamlakatimiz yetakchisi viloyatga tashrifining birinchi kuni Marg‘ilon shahridagi “Burhoniddin Marg‘inoniy” ilmiy-ma‘rifiy va turizm majmuasining ochilish marosimida “Farg‘onaga bu safar ham yangi-yangi tashabbuslar, katta-katta loyihalar bilan keldim. Maqsad — viloyat rivojini yangi bosqichga olib chiqish, uni barcha sohalarida namunali hududga aylantirishdan iborat”, dedi.

Farg‘ona viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalari yuzasidan o‘tkazilgan yig‘ilishda ushbu tashabbus va loyihalar ma‘lum qilindi.

Davlatimiz rahbari, avvalo, viloyat iqtisodiyotida keyingi yillarda kuzatilayotgan o‘zgarishlarga to‘xtaldi.

Qayd etilganidek, so‘nggi yillarda viloyatda 8 milliard 200 million dollar investitsiya hisobiga 8000 ta zamonaviy quvvat ishga tushirildi. Tadbirkorlik uchun 100 trillion so‘m resurs yo‘naltirildi, tijorat maydonlari 10 million kvadrat metrga kengaydi. 13 ming 500 kichik va o‘rta korxonaga tashkil etilib, ularning soni qariyb 2 barobar oshdi. Natijada yalpi hududiy mahsulot 1,7, sanoat 1,5, xizmat ko‘rsatish esa 3 barobar o‘tdi. Asosiy, so‘nggi to‘rt yilda ishsizlik 9,2 foizdan 4,6 foizga, kambag‘allik darajasi esa 11,6 foizdan 5,2 foizga tushdi.

Uy-joy qurilishi bo‘yicha ham katta ishlar qilinmoqda. Masalan, Marg‘ilondagi Ipakchi va Qirguli mahallalarida 241 ta eski hovli o‘rnida 2500 xonadonli ko‘p qavatli uylar barpo etildi. Navro‘z mahallasida qurilayotgan “Yangi O‘zbekiston” massiviga bu yil yana 6500 oila ko‘chib kiradi. Bunday ishlar Yozyovon, Quva tumanlari, Qo‘qon va Farg‘ona shaharlarida ham davom etmoqda.

Keyingi o‘n yilda viloyatda 74 ming o‘rinli maktab, 145 ming o‘rinli bog‘cha va 3000 ko‘yali shifoxonalar ishga tushirildi. 167 ta xususiy maktab tashkil etilib, ularda 40 mingdan ortiq o‘quvchi ta‘lim olmoqda. O‘qitish sifati oshgani natijasida yoshlarning oliy ta‘lim muassasalariga kirish ko‘rsatkichi bo‘yicha Farg‘ona mamlakatda uchinchi o‘ringa ko‘tarildi.

Qishloq xo‘jaligida 15 ming gektar sanoatlashgan bog‘ va tokzor barpo etildi, yana 6000 gektari yangilandi. Mevasabzavot eksporti 3 karra ko‘payib, 400 million dollarga yetdi. Farg‘ona, So‘x, Quva tumanlari, Marg‘ilon va Qo‘qon shahrida turizm jadal rivojlanmoqda. O‘tgan yili xorijlik sayyohlar soni ilk bor 500 mingdan, mahalliy mehmonlar 3 milliondan oshdi, turizm eksportidan tushgan daromad esa 185 million dollarga yetdi.

— Farg‘ona ahli bizdan yanada katta natija kutayapti, — dedi Prezidentimiz.

Shu bois, joriy yil viloyatda iqtisodiyotni 9,1, sanoatni 9 foiz o‘stirish, 4,5 milliard

dollar xorijiy investitsiya jalb etish, eksportni 2 karra ko‘paytirib, 2 milliard dollarga yetkazish vazifasi qo‘yildi.

Yig‘ilishda Farg‘ona davlat idoralari, sanoat, servis va qishloq xo‘jaligida zamonaviy texnologiyalar, raqamli yechimlar va sun‘iy intellektni keng joriy etish bo‘yicha namuna bo‘lishi kerakligi ta‘kidlandi.

“Besh million sun‘iy intellekt yetakchisi” dasturi bo‘yicha sertifikat olgan yoshlarning eng ko‘pi Farg‘ona viloyati hissasiga to‘g‘ri keladi. Viloyat va tuman rahbarlariga iqtidorli yoshlarni jalb etgan holda davlat idoralari xizmatlar va jarayonlarni raqamlashtirish, aholi va tadbirkorlar uchun qulayliklarni oshirish topshirildi.

Mahallalarning ustunliklarini sun‘iy intellekt yordamida tahlil qilib, ish o‘rni, qo‘shilgan qiymat va aholi daromadini ko‘paytiradigan loyihalar ishlab chiqish muhimligi qayd etildi.

Masalan, Yozyovon tumani imkoniyatlari sun‘iy intellekt yordamida o‘rganilganda tuman iqtisodiyotida asosiy e‘tiborni logistika qaratish zarurligi aniqlangan. A-373 magistralining Yozyovondan o‘tgan 35 kilometr qismi orqali kuniga 30 ming transport vositasi harakatlanadi. Tumanda logistika markazlari, yirik omborlar, yo‘lbo‘yi vosiyatlarini ko‘paytirish orqali iqtisodiy aylanmani yana 1 trillion so‘mga oshirish mumkin.

▶ Davomi 2-beta

CHEXIYA BOSH VAZIRI RASMIY TASHRIF BILAN O‘ZBEKISTONDA BO‘LADI

Chexiya Respublikasi Bosh vaziri Andrey Babish 29-30-aprel kunlari rasmiy tashrif bilan mamlakatimizda bo‘ladi.

Tashrif dasturiga muvofiq, Toshkent shahrida oliy darajadagi muzokaralar bo‘lib o‘tadi, ko‘p qirrali O‘zbekiston — Chexiya hamkorligini yanada rivojlantirish istiqbollari ko‘rib chiqiladi.

O‘zaro savdoni ko‘paytirish, mashinasozlik, “yashil” energetika, kimyo, farmatsevtika va transport sohalarida kooperatsiyani kengaytirish diqqat markazida bo‘ladi. Madaniy-gumanitar va ta‘lim sohalaridagi

hamkorlik masalalari muhokama qilinadi.

Xalqaro kun tartibidagi masalalar, shu jumladan, ko‘p tomonlama maydonlarda o‘zaro qo‘llab-quvvatlash yuzasidan ham fikr almashiladi.

Uchrashuv yakunida ikki tomonlama hujjatlar imzolaniishi ko‘zda tutilgan. Tashrif doirasida Bosh vazir Andrey Babish O‘zbekiston — Chexiya biznes forumida ham ishtirok etadi.

O‘Z

O‘ZBEKISTON VA CHEXIYA O‘RTASIDAGI KO‘P QIRRALI HAMKORLIK IZCHIL KENGAIMOQDA

29–30-aprel kunlari Chexiya Bosh vaziri Andrey Babish rasmiy tashrif bilan O‘zbekistonga keladi.

Xalqaro munosabatlarning zamonaviy transformatsiyasi hamda global tahdid va xatarlar kuchayib borayotgan sharoitda bir-biridan olis hududlarda joylashgan O‘zbekiston va Chexiya ikki tomonlama hamkorlikni izchil rivojlantirib, unga yanada tizimli va ko‘p qirrali tus bermoqda. Siyosiy muloqotni kengaytirish, savdo-iqtisodiy sheriklikni mustahkamlash va gumanitar hamkorlikni faollashtirish tomonlarning sheriklikni chuqurlashtirishdan o‘zaro manfaatdorligini aks ettiradi.

Toshkent va Praga o‘rtasidagi barqaror aloqalarning shakllanishi 1993-yil 1-yanvarda diplomatik munosabatlar o‘rnatilganidan buyon to‘plangan o‘zaro hamkorlik tajribasiga tayanadi.

Ikki davlat rahbarlari o‘rtasidagi aloqalar o‘zaro hamkorlikning muhim

elementi hisoblanadi. Xususan, 2025-yil 23-sentabr kuni O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 80-sessiyasi doirasida Chexiya Prezidenti Petr Pavel bilan uchrashuv o‘tkazdi. Bu turli sohalaridagi qo‘shma loyihalarga yangi sur‘at bag‘ishlash imkonini berdi.

O‘zbekiston va Chexiya ko‘p tomonlama platformalarda hamkorlikni muvofiqlashtirishga alohida e‘tibor qaratmoqda. Ikki mamlakat tashqi siyosat idoralari o‘rtasidagi aloqalar xalqaro tadbirlar doirasida muntazam ravishda amalga oshirilmoqda. Xususan, 2023-yilda O‘zbekiston va Chexiya tashqi ishlar vazirlarining Lyuksemburgda bo‘lib o‘tgan “O‘zbekiston — Yevropa Ittifoqi” hamkorlik kengashi yig‘ilishi hamda Skope shahrida

bo‘lib o‘tgan YXHT TIV kengashi yig‘ilishi doirasida ikki tomonlama uchrashuvlari bo‘lib o‘tdi.

2024-yil sentabr oyida Nyu-Yorkda BMT Bosh Assambleyasining 79-sessiyasi doirasida bo‘lib o‘tgan uchrashuvda ham ikki davlat tashqi ishlar vazirlari muloqot qilgan edi. Unda vazirlar har tomonlama hamkorlikni yanada kengaytirish masalalarini muhokama qildi.

2024-yil oktabr oyida Chexiya tashqi ishlar vaziri Yan Lipavskiy rasmiy tashrif bilan Toshkentga kelib, O‘zbekiston Bosh vaziri o‘rinbosari, tashqi ishlar vaziri va boshqa rasmiy shaxslar bilan uchrashuvlar o‘tkazgan. Bu uchrashuvlar tomonlari o‘rtasidagi siyosiy muloqotning barqaror rivojlanib borayotganini anglatadi.

▶ Davomi 3-beta

BU MASKAN BO‘LAJAK JAHON VA OLIMPIADA CEMPIONLARINI TARBIYALAYDI

QASHQADARYODA ZAMONAVIY SUV SPORTI SAROIY FOYDALANISHGA TOPSHIRILDI



FARG‘ONA SO‘NMAS AZM-U SHJOAT, BOY ILM-U MA‘RIFAT, YUKSAK VATANPARVARLIK BILAN BARQAROR TARAQQIYOT MAKTABINI YARATMOQDA

Boshlanishi 1-betda

So‘nggi yillarda Farg‘onada AT xizmatlari 4 karra o‘sgan, eksport 23 million dollardan oshdi. Yangi o‘quv yilidan Quva tajribasi asosida yana 16 tumandagi texnikumlar negizida dasturlash, robototexnika, grafik dizayn va xorijiy tillar bo‘yicha kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yildi. Farg‘ona shahrida AT park universiteti, Marg‘ilonda INHA universitetining filialini ochib, sun‘iy intellekt, kibernetika va dasturiy muhandislik yo‘nalishlarida yiliga 1000 yigit-qizni o‘qitish belgilandi.

Elektron tijoratni rivojlantirish masalasiga ham alohida e‘tibor qaratildi. Bu sohada Farg‘onaning ulushi hali past ekani qayd etilib, viloyatda kamida 100 ming kvadrat metrlilik omborxonalar tashkil qilish, shundan 30 ming kvadrat metrlilik joriy yilda ishga tushirish zarurligi ko‘rsatib o‘tildi. Sanoat va hunarmandchilikka ixtisoslashgan 126 ta mahalladagi tadbirkorlarni elektron tijorat platformalaridan foydalanishga o‘rgatish vazifasi qo‘yildi.

Muhokama markazidagi yana bir ustuvor yo‘nalish qishloq xo‘jaligida mavjud xazinalarni ishga solish bo‘ldi. Qayd etilganidek, viloyatda 370 ming gektar sug‘oriladigan yer bo‘lib, shundan 55 ming gektari bog‘ va tokzor. Qolaversa, 5500 gektar bog‘ va tokzor eskirgan, 6000 gektar dasht va adir yerlaridan samarali foydalanilmayapti. Agar mana shular ishga solinsa, qo‘shimcha 300 ming tonna meva-sabzavot va iqtisodiyotga 2 trillion so‘mlik qo‘shilgan qiymat yaratish imkonini paydo bo‘ladi.

“Quva Agrostar” agromajmuasi tajribasi alohida qayd etildi. Bu yerda kooperatsiya asosida tomoqqa va dehqon xo‘jaliklariga kichik sexlar qurish, dehqonlarni o‘qitish, in-vitro laboratoriyasida yetishtirilgan ko‘chatlar bilan ta‘minlash va tayyor mahsulot eksportiga ko‘maklashish yo‘lga qo‘yilmoqda. Mana shunday yondashuvlarni barcha tumanda joriy qilish, 5500 gektar eskirgan bog‘larni to‘liq yangilash topshirildi.

Viloyatda 50 ming gektar kam hosilli paxta va g‘alla yerlari hamda samarasi past bog‘lar o‘rni super intensiv bog‘lar yaratish bo‘yicha katta dastur ishlab chiqildi. Bu yil 611 ming tonna meva, 252 ming tonna uzum, 1,8 million tonna sabzavot, 119 ming tonna sholi yetishtirib, meva-sabzavot eksportini

25 foiz oshirish va 500 million dollarga yetkazish muhimligi qayd etildi.

Davlatimiz rahbari investitsiya masalalariga ham to‘xtaldi. Qulay infratuzilma, qonun ustuvorligi va eng asosiysi, yurtimizning barqaror tinchligi xorijlik investorlarni jalb etishda hal qiluvchi omil bo‘layotgani qayd etildi. Mana shu ustuvorlikdan kelib chiqib, viloyatda sanoat zonalari uchun ajratilgan 1077 gektar yerdan samarali foydalanish, har bir gektarda yiliga kamida 50 milliard so‘mlik mahsulot ishlab chiqarish asosiy mezon bo‘lishi belgilandi. Sanoat zonalarida 5 milliard dollarlik loyihalarni boshlash topshirildi.

Beshariqadagi Andarxon mahallasida erkin savdo zonasini tashkil etish, Qo‘qondagi mexanika zavodi hududida 70 million dollarlik yirik savdo kompleksini barpo etish takliflari qo‘llab-quvvatlandi.

Turizm sohasida ham katta imkoniyatlar borligi qayd etildi.

— Tarixiy obidalar va betakror tabiatni o‘zida jamlagan Farg‘onada xorijiy turistlar oqimini yana 2-3 karra oshirsa bo‘ladi, — dedi Prezidentimiz.

Buning uchun Qo‘qon va Marg‘ilonni ziyorat turizmiga, So‘x, Quva, Beshariq va Farg‘ona tumanlarini tibbiy va ekoturizmga ixtisoslashtirish zarurligi ta‘kidlandi. Quvadagi “Karkidon” suv ombori atrofidagi dam olovchilar xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha favqulodda vaziyatlar markazi tashkil etilgan qayd etilib, mamlakatdagi boshqa suv omborlarini ham bosqichma-bosqich aholi va sayyohlar uchun qulay maskanlarga aylantirish vazifasi qo‘yildi.

Marg‘ilonda “Burhoniddin Marg‘inoniy” ilmiy-ma‘rifiy va turizm majmuasining ochilishi milliy qadriyatlar va tariximizni dunyoga namoyon etadigan muhim qadam sifatida baholandi. Farg‘ona tumanida “Shohimardon — Yordon” xalqaro kurort zonasini, “Vodil” malina-agroturizm klasteri, “Avval” ko‘ngilochar turizm majmuasi va “Chimyon” sanatoriy-kurort zonasini kabi loyihalar amalga oshirilmoqda. Kelasi yil yakuniga qariyb 300 million dollarlik 50 ta turizm loyihasini ishga tushirish zarurligi belgilandi.

Qo‘qonda 64 ta madaniy meros obyektlarini qamrab olgan 3 ta piyoda turizm marshruti ishlab chiqildi. Shahardagi madaniy meros obyektlarida joylashgan davlat idoralarni boshqa binolarga ko‘chirish, tarixiy obyektlarni turizm va madaniyat maskanlariga aylantirish bo‘yicha topshiriqlar berildi.

So‘x tumanida ekoturizm, agro va tibbiy turizmni rivojlantirish uchun katta salohiyat mavjudligi ta‘kidlandi. So‘x daryosining Sarikanda, Istiqlol va Rovon mahallalaridan o‘tgan qismidagi 130 gektar maydonda yirik turizm kompleksini barpo etish, xorijiy mutaxassislarni jalb qilgan holda tumanni rivojlantirish bo‘yicha master-reja ishlab chiqish topshirildi. Umuman, tumanga yangicha qiyofa olib kirish bo‘yicha uch yillik dastur qabul qilinishi aytiladi.

Yig‘ilishda Farg‘onaning boy madaniy merosini o‘rganish va targ‘ib qilish masalalari ham ko‘rib chiqildi.

Qo‘qon adabiy muhiti antologiyasi va elektron platformasini yaratish, Adabiyot va ijod maktabini tashkil etish taklif qilindi. Yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni ommalashtirish maqsadida viloyatdagi 100 ta mahallada namunaviy mahalla kutubxonalari tashkil etiladi, buk-kafe ochgan tadbirkorlarga soliq va ijara to‘lovlari bo‘yicha imtiyozlar beriladi. “Burhoniddin Marg‘inoniy” ilmiy-ma‘rifiy va turizm majmuasida har ikki yilda Xalqaro kitobxonlik festivalini o‘tkazish, unga dunyoning mashhur yozuvchi va shoirilarini taklif qilish tashabbusi ilgari surildi.

Farg‘ona madaniyatining ajralmas qismi bo‘lgan askiya san‘atini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ham alohida e‘tibor qaratildi. Marg‘ilonda Yusufjon qiziq Shakarjonov nomidagi Respublika askiya va qiziqchilik san‘ati markazi tashkil etilgan qayd etilib, yosh iste‘dodlarni ko‘llab-quvvatlash, tuman madaniyat markazlari va musiqa-san‘at maktablarida askiya va qiziqchilik mahorati yo‘nalishlarini ochish topshirildi.

Yig‘ilishda viloyat va tumanlar rahbarlarining hisobotlari, tadbirkorlar va jamoatchilik vakillarining fikrlari tinglandi.

Shundan so‘ng Prezidentimiz Farg‘ona shahridagi AT park majmuasida yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbari 2024-yil avgustda Qoraqalpog‘istonda tashrif chog‘ida barcha hududda zamonaviy AT parklar qurish, binolar shaharlar markazida, yoshlarga qulay joyda bo‘lishi, ularda yoshlar o‘zini erkin his qilishi uchun barcha sharoit yaratilishi lozimligi bo‘yicha topshiriqlar bergandi.

Mazkur majmuada ana shu topshiriqqa to‘la mos holda barpo etilgan, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Binobarin, majmuada shahar markazida, yoshlar uchun qulay lokatsiyada

joylashgan. Bu yerdagi 150 milliard so‘m hisobiga qurilgan obyekt bir vaqtning o‘zida 200 nafargacha foydalanuvchini qamrab oladi. Yiliga 3000 dan ortiq yoshni o‘qitish, amaliy loyihalarga jalb etish va AT xizmatlari ko‘rsatish imkoniga ega.

Ta‘lim, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish zanjiri asosida faoliyati yo‘lga qo‘yilgan markazda frilanserlar va dasturchilar uchun zamonaviy kovorking muhiti, rezident kompaniyalar uchun to‘liq jihozlangan ofislar tashkil etilgan. Qulay infratuzilma yoshlarning o‘zini o‘zi band qilish imkoniyatlarini kengaytirib, barqaror daromad topishiga xizmat qiladi.

Qayd etilganidek, so‘nggi yillarda Farg‘ona viloyatida AT xizmatlari hajmi 4 barobar o‘sgan, eksport 23 million dollardan oshgan. Hozir viloyatda AT park rezidentlari soni 139 taga yetgan. Vaholanki, 2021-yilda bu ko‘rsatkich bor-yo‘g‘i 6 tani tashkil etardi. Qamrov oshib borishi hisobiga 2025-yilda 22,7 million dollarlik axborot texnologiyalari xizmatlari eksport qilinishiga erishildi.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasida mamlakatimizni mintaqaviy axborot texnologiyalari xabiga aylantirish vazifasi qo‘yilgan. Yangi park ushbu maqsadga erishishga munosib hissa qo‘shishi shubhasiz. Binobarin bu yerda rezidentlar sonini 200 nafarga yetkazish, 700 ta yangi ish o‘rni ochish, xizmatlar hajmini 1,5 barobar oshirish, 4,6 milliard so‘m byudjet tushumi hamda 30 million dollarlik eksportga erishish maqsad qilingan.

Bugungi raqamli dunyoda frilanserlikda dasturlash ommalashgan, AT frilanseri bo‘lish uchun dasturlash va ingliz tilini chuqur o‘rganish talab etiladi. Shu kabi zamon talablaridan kelib chiqib, kelgusida majmuada sun‘iy intellekt texnologiyalari xabini tashkil etish, boshqaruv tizimlarini raqamlashtirishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish rejalashtirilgan. Shuningdek, sun‘iy intellekt, dasturlash, grafik dizayn, kompyuter savodxonligi va ingliz tili bo‘yicha zamonaviy o‘quv kurslari yo‘lga qo‘yiladi. Startaplar uchun venchur moliyalashtirish, grantlar va akseleratsiya dasturlari joriy etiladi.

Prezidentimiz park rezidentlari va axborot texnologiyalari sohasida faoliyat yuritayotgan yoshlar bilan mulohazot qildi. Ular ilgari surgan tashabbus va g‘oyalarni ko‘llab-quvvatlandi. Farg‘ona viloyati futbol assotsiatsiyasiga qarashli futbol markazi va “Nefchi”

bolalar futbol akademiyasi davlatimiz rahbarining navbatdagi tashrif manzili bo‘ldi. Mamlakatimiz yetakchisi markaz va akademiyada yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi.

Millionlar o‘yini haqida gap ketganida, yurtimizda ushbu sport turi birinchilardan Farg‘onada rivojlanganini alohida qayd etish joiz. Ayniqsa, viloyat o‘ziga xos futbolchilik maktabi, ashaddiy muxlislik madaniyati va iste‘dodli charm to‘p ustalari bilan mashhur bo‘lgan.

1962-yilda tashkil etilgan “Nefchi” futbol klubi O‘zbekiston superligasining 6 karra chempioni, mamlakat kubogining 2 karra va superkubokning 1 karra sohibi bo‘lgani ham fikrimizni tasdiqlaydi. Bundan tashqari, klub 1994-yilda MDH kubogi finalchisi bo‘lgan, 1994-1995-yillarda esa Osiyo chempionlar ligasida bronza medallarni qo‘lga kiritgan.

Bugun ham hududda iqtidorli yosh futbolchilarni saralab olish va tayyorlash, malakali murabbiylar zaxirasini shakllantirish bo‘yicha tizimli ishlar qilinmoqda.

Xususan, Prezidentimizning 2019-yil 4-dekabrda “O‘zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni asosida professional futbol klublari akademiyalarini rivojlantirish choralari ko‘rib, 2025-yilda “Nefchi” bolalar futbol akademiyasi tashkil etildi.

To‘rt yarim gektardan ortiq maydonni egallagan akademiya 150 nafardan ziyod o‘quvchi-yosh uchun mo‘ljallangan. Bu yerda 6 ta katta va kichik futbol maydoni, zamonaviy tibbiyot va reabilitatsiya uskunalari bilan jihozlangan fizioterapiya bo‘limi faoliyat yuritadi.

Bundan tashqari, akademiyada 1,1 million dollarlik sun‘iy qoplamali, havo gumbaz bilan yopilgan yopiq futbol maydoni barpo etilgan.

Viloyatda futbol muhiti jahon standartlari darajasiga olib chiqish, iqtidorli yoshlarni saralash maqsadida UEFA instruktorlari va boshqa xalqaro mutaxassislar jalb qilindi.

Mamlakatimiz yetakchisi akademiyada yoshlar bilan mulohazot qilib, ularning mashg‘ulotlarini kuzatdi.

Davlatimiz rahbari viloyatga tashrif doirasida Farg‘ona xalqaro aeroportini rivojlantirish konsepsiyasi taqdimoti bilan ham tanishdi.

Bugun Farg‘ona aeroportidagi terminal o‘tuz yildan ortiq vaqt davomida faoliyat

yuritib kermoqda. Uning o‘tkazuvchanlik quvvati, yo‘lovchilarga qulaylik darajasi, shuningdek, aviatsiya va noaviatsiya xizmatlarini rivojlantirish imkoniyatlari zamonaviy talablarga to‘liq javob bermay qolgan.

Shu bois, parvozlar geografiasini kengaytirish, hududning o‘ziga bo‘rayotgan iqtisodiy faolligi va sayyohlar oqimiga mos ravishda xizmat ko‘rsatishni ta‘minlash maqsadida aeroport infratuzilmasini kompleks rivojlantirish rejalashtirilgan.

Taqdimotda uchish-qo‘nish yo‘lagini uzaytirish va kengaytirish, aerodrom infratuzilmasini modernizatsiya qilish, yangi yo‘lovchi va yuk terminallarini barpo etish masalalari ko‘rib chiqildi.

Maydoni 20 ming kvadrat metr bo‘lishi kutilayotgan yangi yo‘lovchi terminali hozirgi imkoniyatlarga nisbatan ikki barobar ko‘p — 1200 nafargacha yo‘lovchiga xizmat ko‘rsatish quvvatiga ega bo‘ladi. Shuningdek, qo‘shimcha samolyot turargohlari barpo etilib, havo kemalarini saqlash imkoniyati 10 tagacha yetkazildi.

Yangi terminalda keng kutish zalari, zamonaviy servis nuqtalari, qulay ro‘yxatdan o‘tish va nazorat tizimlari, shuningdek, yuqori martabali mehmonlar uchun alohida xizmat ko‘rsatish sharoitlari yaratilishi ko‘zda tutilgan.

Davlatimiz rahbari aeroport har qanday hududning “darvozasi” ekanini ta‘kidlab, bu yerda zamonaviy servisini yo‘lga qo‘yish, transport va xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq yondosh tarmoqlarni rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar berdi.

Loyihalash, qurilish va yangi terminalni keyinchalik boshqarishni xalqaro standartlar asosida, tegishli tajribaga ega xorijiy operatorlarni jalb qilgan holda amalga oshirish muhimligi ta‘kidlandi.

Qayd etilganidek, ushbu loyihaning amalga oshirilishi Farg‘ona vodiysida transport bog‘liqligini kuchaytirish, sayyohlar oqimini oshirish va hududning logistik markaz sifatidagi mavqei ustun ta‘hkimlashga xizmat qiladi.

Shu bilan Prezidentimizning Farg‘ona viloyatiga tashrif yakunlandi.

Avazbek XUDOYQULOV, Boboravshan G‘OZIDDINOV, Rasuljon KAMOLOV, “Yangi O‘zbekiston” muxbirlari

Keyingi yillarda yurtimizda “Inson qadri uchun” degan g‘oya asosida aholining baxtu kamoli yo‘lida keng ko‘lamli ishlar qilinmoqda. Xususan, jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratib kelinyapti. Natijada yurtimiz sportchilari jahon arenasida salmoqli yutuqlarni qo‘lga kiritib, O‘zbekiston yoshlari nimalarga qodir ekanini namoyon etmoqda.

Kuni kecha Prezidentimiz tashabbusi bilan Qarshi shahrida bunyod etilgan yangi zamonaviy suv sporti saroyi foydalanishga topshirildi.

Majmuaning tantanali ochilish marosimida Oliy Majlis Senati a‘zolari, Qonunchilik palatasi deputatlari, davlat va jamoat tashkilotlari mas‘ullari, yurt ardog‘idagi mehnat faxriylari, yozuvchi-shoirilar, sportchi yoshlar va keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdi.

Tadbirda Qashqadaryo viloyati hokimi Murodjon Azimov, sport sohasi mas‘ullari, xorijlik mehmonlar so‘zga chiqib, Prezidentimizning Qashqadaryo eliga, yoshlarga sovg‘asi sifatida bunyod etilgan mazkur muhtasham suv sporti saroyi jahon standartlari talablariga to‘la javob berishini ta‘kidladi.

Bundan ikki yil avval davlatimiz rahbari Yakkasaroy tumanida barpo etilgan suv sporti saroyi bilan tanishar ekan, bunday zamonaviy sharoitlar faqat Toshkent shahrida emas, balki mamlakatimizning barcha hududida, xususan, Qashqadaryoda ham bo‘lishi zarurligini ta‘kidlagan edi, — dedi suv sporti saroyi ochilishi marosimida so‘zga chiqqan O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi raisi Qudratilla Rafiqov. — Ushbu inshootning bunyod etilishi davlatimiz rahbarining inson qadriini ulug‘lash va manfaatlarini ta‘minlash yo‘lidagi keng ko‘lamli ezuva va xayrli ishlarining amaliy natijasidir.

Xalqimiz salomatligini mustahkamlash, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish hamda suv



Tuhfa



Qashqadaryo vohasidan bir xushxabar taraldi, Oltin qo‘larni san‘atidan zo‘r mo‘jiza yaraldi, To‘rt tomoni kasabaning mehri bilan o‘raldi, Billur qandil kabi yal-yal, ko‘zni olar chiroyi, Suv sporti saroyi bu, suv sporti saroyi.

Qarshi shahri asli Qashqadaryo yuragi, Shu yurakning otashida tinchlik nurini tilagi, Nasafiyalar avlodining yer ko‘rmagan kuragi, Bu bino ham ulug‘larning elga qilgan duosi, Suv sporti saroyi bu, suv sporti saroyi.

O‘zbekiston yoshlarining yo‘li suvdek ziloldir, Tongi yorug‘, tunlarining chirog‘i boni hiloldir. Bu kun yangi O‘zbekiston elga yangi kamoldir, Oltin medal bo‘yindadir, gar kim sodiq fidoyi, Suv sporti saroyi bu, suv sporti saroyi.

Bu dargohdan yurt yoshlari qushdek qanot qoqqaydir, Ko‘hna Amu, ko‘hna Sirdek ravon-vaqqaydir, Millatning chirog‘ini suv ichra ham yoqqaydir, O‘tinchimiz, g‘animlar hech bo‘lmasinlar savdoyi, Oddiy sport saroyi bu, suv sporti saroyi.

Biz ezigulik yo‘llarida oqib turgan daryomiz, Buxoriydek, Navoiydek dillar ichra ziyomiz, Kaftingizni ochsangiz gar niyati nur, safomiz, O‘zbergimning duosi ham zilol suvdek kiroyi, Suv sporti saroyi bu, suv sporti saroyi.

Yetti yuzta tomoshabin yetti mingta ozudir, Sport desu, O‘zbekiston Yeri shariga ko‘zgudir, Bu oqilu odil sarbon ko‘ksidagi yug‘dudir, Buyuk millat boshidagi Tangri bergan humoyi, Oddiy sport saroyi bu, suv sporti saroyi!


Mahmud TOIR, O‘zbekiston xalq shoiri

BU MASKAN BO‘LAJAK JAHON VA OLIMPIADA CHEMPIONLARINI TARBIIYALAYDI

QASHQADARYODA ZAMONAVIY SUV SPORTI SAROYI FOYDALANISHGA TOPSHIRILDI



sportini yanada rivojlantirishga munosib hissa qo‘shuvchi ushbu majmua individual loyihalangan bo‘lib, barcha suv sporti musobaqalarini o‘tkazishga mo‘ljallangan. Jami 2 gektar hududda joylashgan suv sporti saroyi tarkibida 50x21 metr o‘lchamli suv havzasi, 16x16 o‘lchamli, 10 metr balandlikdan suvga sakrash uchun mo‘ljallangan havza va mahorat mashqlari uchun quruq basseyn, shuningdek, 6x12 metr o‘lchamdagi ikkita bolalar hovuzi mavjud. Balandlikdan sakrash hovuzida asosiy 5 ta sakrash maydonidan iborat minora mavjud bo‘lib, ularning balandligi 1, 3, 5, 7, 5 va 10 metrni tashkil etadi. Sakrash uchun 7 ta trampoline‘rnatilgan.



Bundan tashqari, yopiq suv havzasi, ma‘muriyat, mediahududlar, fitness hamda yig‘ilish zalari ham bor. Infratuzilma doirasida 700 o‘rni

tomoshabinlar tribunasi, keng xoll, yuvinish va kiyim almashtirish xonalari, dam olish hududlari tashkil etildi. Barcha uskuna va jihozlar dunyoning yetakchi, ishonchli va mashhur ishlab chiqaruvchi kompaniyalari tomonidan tayyorlangan. Yuqori sifatli, energiya samarador va zamonaviy talablarga to‘liq javob beradi.

Suv sporti saroyini ko‘rib, havasim keldi. Vohada 8-9 yillar oldin suv sporti haqida gapirishga uyaldirdik, — deydi Qashqadaryo viloyati suv sporti bo‘yicha bosh murabbiyi Alijon Jabborov. — Ilgari yoshlar o‘rtasida turli sport musobaqalari o‘tkazila, viloyatimizdan suv sporti bo‘yicha ishtirokchi topish muammo bo‘lardir. Bugun yettita tumanimizda suv sporti havzalari mavjud. Birgina Qarshi shahridan o‘zida mingga yaqin yoshlar suv bilan mashg‘ul. Yangi suv sporti saroyi esa katta musobaqalarga yo‘l ochadi. Bu yerda xalqaro talablarga munosib sharoitlar yaratilgan. Nufuzli musobaqalarni o‘tkazish mumkin.

Ushbu maskanda suv sporti ishqibozlari bir joyning o‘zida uzoq masofaga suv, suv polosi va balandlikdan sakrash mashqlari bilan shug‘ullanishi uchun zarur shart-sharoit mavjud.

To‘rt yoshimdan suv bilan shug‘ullanim kelaman, — deydi qarshilik Marvarid Yo‘ldosheva. — Hozir 9 yoshdaman. Shu paytaga qadar 10 karra viloyat chempioni bo‘ldim. Kelgusida olimpiada chempioni bo‘lish niyatim bor. Yangi suv havzasini ko‘rib, xursand bo‘ldik. Bir-biridan chiroyli suv havzalari bor ekan. Bundan tashqari, bugungi tadbirga men havas qilgan sportchilar kelibdi. Chempion opalarim bilan yaqindan tanishdim. Ularning qimmatli maslahatlarini oldim. Surata tushdik. Murabbiyimizning aytishicha, hali bu yerda katta-katta musobaqalar o‘tkaziladi. Demak, biz uchun yana imkoniyatlar yaratiladi.

Tantanalil ochilish marosimidan so‘ng sinxron suv sporti bo‘yicha “Suv parisi — 2026” ochiq xalqaro turniri g‘oliblarining chiqishi namoyish etildi.

Shundan so‘ng 25-27-aprel kunlari Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgan sinxron suv sporti bo‘yicha “Suv parisi — 2026” ochiq xalqaro turniri g‘oliblarini tantanalil taqdirlash marosimi o‘tkazildi.

Akbar RAHMONOV, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri



ULUG'VOR ISLOHOTLAR ODAMLARNING HAYOTSEVARLIGINI, ERTANGI KUNGA ISHONCHINI MUSTAHKAMLAMOQDA



Dildagi gaplar

XALQIMIZ PREZIDENTIMIZNI YAXSHI KO'RADI VA QADRLAYDI

Quva tumanida tug'ilib o'sganman. Yoshim saksonga qarab ketyapti. Bu yerdagi bepoyon qirlar uzoq yillar davomida qarovsiz, kimsasiz edi. Qarangki, hammasi butkul o'zgarib ketibdi. Inson qo'lig deb shuni aytisalar kerak-da. Yaqindaq adirlar bugun serhosil bog'-rog'larga, go'zal go'shalarga aylandi.



Shamsiddin QORABOYEV, mehnat faxriysi

Juda katta o'zgarishlar yuz berdi. Bu yerga kelib, qadim maskanning yangi jamoli, o'bdodligidan hayratlandim. Ayniqsa, "Karkidon" suv ombori hududining butunlay yangi qiyofaga kirgani, keng va ravon yo'llar bugun barchaning havasiga sabab bo'lmoqda. Bu ishlarining samarali bajarilayotganida davlatimiz rahbarining

tashabbusi, xalqimizning mehnatkashligi hal qiluvchi o'ringa ega.

Dunyoda tinchlik, farovonlik kun sayin dolzarb bo'lib borayotgan ayni davrda xalqimiz har kuni, har hafta mana shunday yaxshi yangiliklarga, bayramona voqealarga guvoh bo'lmoqda. Kimdir mubolag'aga yo'yar, lekin shahar va qishloqlarda bo'y ko'rsatayotgan islohotlar, ulkan bunyodkorlik ishlari, qolaversa, yoshlarimizning ta'lim olishi, ishlashi uchun yaratilayotgan sharoit va imkoniyat, imtiyozlar haqida har qancha gapirsak arziydi. Shunday zavq bilan yashash, tobora go'zallashib borayotgan yurt ravnagiga hissa qo'shishni kim xohlamaydi deysiz?!

Marg'ilon shahridagi "Burhoniddin Marg'inoniy" ilmiy-ma'rifiy va turizm majmuasining tantanali ochilishida ishtirok etib, yana bir holatga guvoh bo'ldim: xalqimiz bu o'zgarishlarda bosh islohotchi bo'layotgan Prezidentimizni yaxshi ko'radi, qadrlaydi, ishonadi! Bugun nafaqat viloyatimiz ahlil, balki yurtimizning turli hududidan kelgan yurtdoshlarimiz mazkur tashrifni, davlatimiz rahbarining nutqini katta qiziqish va mamnunlik bilan eshitdi. Bildirilgan minnatdorlik va e'tirofning qalblar faxriga to'ldi.

Joriy o'quv yili hayotimda unutilmas voqea va yutuqlarga boy bo'ldi. Dunyoning nufuzli oliy ta'lim muassasalaridan biri bo'lgan AQSHdagi Harvard universitetiga 100 foizli — 392 ming AQSH dollari miqdoridagi grant sohibi bo'ldim. Bunday muvaffaqiyatga o'z-o'zidan erishganim yo'q, albatta.

MEN SHU EL FARZANDIMAN

O'zbekiston yoshlar mamlakati sifatida dunyoga yuz ochdi. Bizga yaratib berilgan shart-sharoit, imtiyoz va imkoniyatlarning o'rni beqiyos. Chekka qishloqda, oddiy oilada yashayman. Ota-onam hamisha bir gapni uqtiradi: "Bilim olishdan hech qachon to'xtamang. Ilm, mehnat bilan kelajagingizni yaratasiz!"

Bu kabi ezgu da'vatlar, yurtimizda yoshlarni mukammal bilim egalari bo'lish yo'lida yaratilgan sharoitlar meni Farg'ona shahridagi Prezident maktabi sari yetakladi. Bu qutlug' maktabda bilim va salohiyati yuqori bo'lgan ustozlardan bilim oldim, o'qib, o'rgandim. Yutuqlarim zamirida yuqinlarim va albatta, ta'limga berilayotgan e'tiborning hisssasi katta. Davlatimiz rahbari har yili yurtimiz yoshlari bilan yuzma-yuz uchrashib, ularning muammolarini hal etadi, yangi tashabbuslarini qo'llab-quvvatlaydi, har jihatdan bizga tayanch bo'lib keladi. Farg'ona viloyatiga qilgan va galgi tashrifim ham yoshlar hayot tarzida yangi imkoniyat eshiklarini ochdi. Farg'onada yangi oliygo'har, AT markazlar qurish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash orqali salohiyatli mutaxassislar tayyorlash yo'lida yangi loyihalarni ishga tushirishga tamal toshlari qo'yilgani ayni muddao bo'ldi. Yosh tadbirkorlar uchun imtiyozlar berilayotgani, ehtiyojmand oilalar farzandlari hamisha e'tibor markazida bo'lib kelayotgani kishiga katta kuch va ilhom bag'ishlaydi.

Ayniqsa, "Burhoniddin Marg'inoniy" ilmiy-ma'rifiy va turizm majmuasi faoliyat boshlagani



Dilafroz SOBIROVA, Farg'ona shahridagi Prezident maktabining 11-sinf o'quvchisi, AQSHdagi Harvard universiteti granti sohibi

yoshlar qalbiga cheksiz g'urur, iftixor olib kirdi. Bunday yangilanishlar, bunyodkorliklar yurtimiz salohiyati, kuch- qudrati, xalq hamjihatligining yorqin timsoli sifatida tarix sahifalariga manguga muhrlanadi. Maqsadlarim bir olam. Kelajakda yurtimiz taraqqiyotiga xizmat qiladigan yetuk mutaxassis bo'lib yetishish va xalqimizga xizmat qilishni oliy saodat deb bilaman. Qayerda bo'lsam ham doim shu el-yurt farzandi ekanimdan faxrlanaman.

YASHAMOQ VA KUYLAMOQ SAODATI

Tinch, farovon yurtda yashash, kuyulash ham saodat. Bugun yurtimizning har bir go'shasida yangi O'zbekiston nafasi ufurib turibdi. Ulug'vor islohotlar odamlar hayot tarzida yangi imkoniyat eshiklarini ochmoqda, ularning hayotsevarligini, ertangi kungga ishonchini mustahkamlamoqda.

Prezidentimizning go'zal Farg'onaga tashrif quvonchli voqealarga boy bo'ldi. Yangi shaharlar, tadbirkorlik, chorvachilik, qishloq xo'jaligi, sanoat tarmoqlariga investirlarni jalb etish yo'lidagi loyihalar ko'lami haqida har qancha gapirsak-da oz. Islohotlar samarasini kundalik hayotimizda o'z ko'zimiz bilan ko'rib, hayotimizda his qilyapmiz. Lo'nda aytganda, ortga qaytmas islohotlarning yangi davridan nafas olaymiz.

Davlatimiz rahbari farg'onaliklar barcha islohotlarning oldingi safida bo'lishiga ishonch bildirdi. Buni viodiy ahli ko'tarinki kayfiyatda qabul qildi. Qo'qon, Namangan, Andijon, Marg'ilon shaharlarini bir-biriga bog'lovchi poyezdlar harakati, shahar va infratuzilma tarmoqlari qurilishi odamlar uzoq'ini yaqin, og'irini yengil qildi. Ayniqsa, yaqingacha tosh-shag'aldan iborat yaqindaq dala-dashda qisqa fursatda qad rostlagan "Burhoniddin Marg'inoniy" ilmiy-ma'rifiy va turizm majmuasining ochilishi katta tantanaga aylangan bejiz emas. Muhtasham majmuva azal-azaldan hunarmandlari, mehmondor'st, shirinsuxan kishilari bilan dong taratgan Farg'ona tamaddunida o'ziga xos yorqin sahifa ochdi. Ma'murjon Uzoqov, Jo'raxon Sul'tonov, Tavakkal Qodirov singari betakror ovoq sohiblari qoldirgan san'at maktabi bugun yanada taraqqiy etib, rivojlanib bormoqda. Ochilish tantanasida bevosita ishtirok etishimiz hayotimizda unutilmas voqea bo'lib qoladi. Bu yerda ko'rganlarimni



Qilichbek TOJIYEV, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, "Mehnat shuhrati" ordeni sohibi

batafsil ta'riflab bera olmayman. Ammo majmuva ko'ngillarga ulug'vorlik, faxr-iftixor, shukronalik, ertangi kungga ishonch va shu yurtga munosib farzand bo'lish kabi yuksak tuyg'ularni olib kirdi. San'at ustalari ijrosidagi kuy-qo'shiqlar odamlar ko'nglini ko'tardi, hayotsevarlik tuyg'ularini jo'sh urdirdi. Yuqori saviyada tashkil etilgan konsert dasturi chog'ida xalqimiz yagona vatan, ezgu maqsadlar yo'lida birlashdi. Xushovoz xonandalar, folklor-etnografik jamoalar, iste'dodli yosh ijrochilarining betakror chiqishlari kechaga o'ziga fayz, tarovat kiritdi.

Farg'onaliklar bu chiqishlarni ko'tarinki kayfiyat, bayramona shukuh bilan qarshi oldi. Chunki farovon, tinch-totuv yurtga to'y-yantanalari yarashadi. Yangi majmuva katta tantanalari markazi, mahalliy va xorijlik mehmonlar uchun dam olish, hordiq chiqarish maskani bo'lib xizmat qiladi.

Afsonaviy shahar bo'ylab sayr qilgan kishi ko'hna Marg'ilonning o'tmishi va bugungi farovon hayot tarziga oshufta bo'ladi. Milliy va zamonaviy me'morlik an'analari bilan uyg'unlashgan bunyodkorlik, hunarmandchilik an'analari yurtimiz kuch-qudrati, salohiyat va imkoniyatlarini qanchalik yuqori ekanidan dalolat beradi.

QALBLARIMIZ FAXRGA TO'LDI

Marg'ilon shahridagi "Burhoniddin Marg'inoniy" ilmiy-ma'rifiy va turizm majmuasining tantanali ochilish marosimida ishtirok etdim. Bu yerda bunyod etilgan Islom huquqshunosligi instituti, maqom teatri, ochiq amfiteatr, o'lkashunoslik muzeyi, adib va san'atkorlar xiyoboni, hunarmandlar markazi, mehmonxona va servis shoxobchalari, ko'zni quvnatuvchi gulzorlarni ko'rib, qalbimda cheksiz faxr va quvonch tuyg'ulari jo'sh urdi.

Ayniqsa, davlatimiz rahbarining mazkur majmuva viloyatimiz rivojida yangi davrni boshlab berishi, yangi O'zbekiston mo'jizalari qatoridan munosib o'rin olib, Farg'ona viloyatining tashrif qog'ozlaridan biriga aylanishi xususidagi fikrlarini xalqimiz oqlash bilan kutib oldi. Bu kunni hech qachon unutmayman.

Anklav hudud bo'lgan "Cho'ng'ara" MFYda yoshlar yetakchisi sifatida ish boshlaganimga ko'p bo'lmadi. Lekin shu qisqa davr ichida katta o'zgarishlar, ezgu maqsadli islohotlar kechdi. Chegaradan o'tishdagi muammolar bartaraf etilgani, olis hududdagi yoshlarga berilayotgan

imtiyozlar, yaratilayotgan shart-sharoitdan mahallamiz ahlil behad xursand. Ana shu jarayonda "yettilik" safida yangi O'zbekiston taraqqiyotiga kamtarona hissa qo'shayotganimdan, Uchinchi Rennassans poydevorini qurayotgan baxtli yoshlari qatorida ekanimdan cheksiz mamnunman.

Har safar viloyatimiz markaziga kelganimda yangi qurilishlarga guvoh bo'laman, tobora ko'kka bo'y cho'zayotgan muhtasham binolarni ko'rib, kun sayin obod bo'layotgan maskanlarga qarab, hayotidan rozi va mamnun kishilar bilan suhbatlashib, o'zimni yanada baxtli his qilaman. Ushbu majmuva mahallamiz yoshlari bilan sayohat uyushtirishni



Navro'zbek BO'RIBEKOV, Rishton tumani "Cho'ng'ara" MFY yoshlar yetakchisi

rejalashtiryapmiz. Bu sayohat ajdodlarimiz qoldirgan bebaho merosdan faxr, noyub qadriyatlarimiz va milliy an'analarmizga hurmat va sadoqat, xalq va yurt koriga kamarbastalik tuyg'ularini yuksaltirishiga ishonaman.

YUKSALISH TAMADDUNI ASOSI

Marg'ilon — qo'ligul hunarmandlar shahri. Aholining turmush darajasini oshirish, kundalik hayot tarzi uchun zarur shart-sharoit yaratib berish borasidagi islohotlar bu yerdagi oilalarga ham halovat, quvonch olib kirdi.

Shahar ahli uy-joy qurish masalasida ko'plab qiyinchilik, muammolar girdobida qolgan. Bitta hovlida 3-4 tagacha oila yashar, odam soni oshib borishi bilan uy-joy, savdo va xizmat ko'rsatish obyektlariga ham talab ortardi.

Tosh-shag'aldan iborat maydonda "Yangi O'zbekiston" massivi qurilishi qadim kengta yangi hayot nafasini olib kirdi. Hududda odamlar hayot tarzi uchun zarur barcha sharoit yaratib berildi. Bog'cha, maktab, shifoxona, savdo va zamonaviy ishlab chiqarish tarmoqlari ham e'tibordan chetda qolmadi. Hammasi o'ziga xos, betakror.

Marg'ilon ayni paytda ijodkorlar, ziyolilar shahri ham. Bu yerda kitobga, adabiyot va san'atga havas, e'tibor o'zga. Obrazli qilib aytganda, har bir mahallaning otabelkari, kumushlari, uvaysiyarlari nodirabegimlari bor. O'lmas qadriyatlarimiz sanalmish ibo-hayo,

nazokat va fasohat bu qadimiy go'shada, unda yashayotganlarning muomalasi va munosabatida aks etib turadi.

Prezidentimizning Farg'ona viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalari yuzasidan o'tkazilgan yig'ilishda aytgan taklif va tashabbuslari, belgilab bergan vazifalari, reja va maqsadlarini tinglab, yurtimizda hamma narsa inson baxt-saodati uchun qaratilganiga yana bir bor amin bo'ldim. Marg'ilon INHA universiteti filiali ochilishi intiluvchan, bilimga chanoq yig'iqizlarni yanada quvontirdi. Biz maktabda o'qigan davrda bunday kasblar, yo'nalishlar haqida faqat orzu qilardik...

Keyingi yillarda mahalla fuqarolar yig'inlarining vakolat va imkoniyatlarini kengaytirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash yo'lida qilingan ishlar bu tuzilmani aholiga yanada yaqinlashtirdi. Endi



Oliyaxon QOSIMOVA, Marg'ilon shahridagi "Galatoy" mahalla fuqarolar yig'ini faoli

mahalla avvalgidek ma'lumotlarga beruvchi idora emas, balki aholi muammolarini o'rganish, ijtimoiy yordam ko'rsatish, qadriyatlar maskani sifatida ham xalqqa xizmat qilmoqda.



O'ZBEKISTON VA CHEXIYA O'RTASIDAGI KO'P QIRRALI HAMKORLIK IZCHIL KENGAYMOQDA

Boshlanishi 1-beta

Ekspertlarning fikricha, Chexiyaning Toshkentdagi elchixonasiga qo'shimcha ravishda O'zbekistonning Pragadagi elchixonasining rasmiy ochilishi tizimli muloqotni yanada mustahkamlash va barcha yo'nalishlarda o'zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirish yo'lidagi muhim qadam bo'ladi.

O'zbekiston — Chexiya munosabatlarini rivojlantirishda parlamentlararo va idoralararo hamkorlik muhim o'rin tutadi. Ikki mamlakat qonun chiqaruvchi organlari

o'rtasidagi aloqalar izchil rivojlanib, yanada tizimli tus olmoqda. 2017-yil fevral oyida Chexiya parlamenti Deputatlar palatasi raisi Yan Gamachekning O'zbekistonga tashrifi parlamentlararo aloqalar rivojiga qo'shimcha sur'at bag'ishladi.

Keyingi yillarda o'zaro tashriflar va maslahatlashuvlar shaklida hamkorlik davom ettirildi. 2025-yilda hamkorlik bo'yicha parlamentlararo guruhlarining tashkil etilishi aloqalarni rivojlantirishning sifat jihatidan yangi bosqichi bo'ldi.

Parlament bilan bir qatorda iqtisodiyot, sanoat, qishloq xo'jaligi, sog'liqni saqlash, ta'lim kabi

sohalarni qamrab olgan idoralararo hamkorlik faol rivojlanmoqda.

2025-yil 18-mart kuni Pragada bo'lib o'tgan iqtisodiy, sanoat va ilmiy-texnikaviy hamkorlik bo'yicha O'zbekiston — Chexiya hukumatlararo komissiyasining o'ninchi yig'ilishi bu borada muhim rol o'ynamoqda.

O'zbekiston va Chexiya o'rtasidagi savdo-iqtisodiy hamkorlik ikki tomonlama munosabatlarning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, tomonlarning amaliy hamkorlikni kengaytirish va sanoat kooperatsiyasini chuqurlashtirishdan manfaatdorligini aks ettiradi. O'zaro savdo O'zbekiston va Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi bitimlarda ko'zda tutilgan eng ko'p qulaylik yaratish tartibi doirasida amalga oshirilmoqda.

So'nggi yillarda savdo dinamikasi to'liqinimsi, ammo umuman olganda, o'suvchi xarakterga ega. 2021-2022-yillardagi pasayishdan so'ng barqaror tiklanish kuzatilmog'da. 2022-yilda o'zaro tovar ayirboshlash hajmi 184,8 million dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda 344,2 million dollarga, 2024-yil yakuniga ko'ra, 434,7 million dollarga yetdi.

O'zbekiston eksportining asosini xizmatlar, sanoat mollari, tayyor mahsulotlar, oziq-ovqat va

kimyo mahsulotlari tashkil etadi. O'z navbatida, Chexiyadan import asosan mashina va transport uskunalar, kimyo sanoati mahsulotlari va sanoat mollariidan iborat.

Iqtisodiy hamkorlikning amaliy o'lchovi qo'shma korxonalar faoliyatida o'z aksini topadi. So'nggi yillarda O'zbekistonda Chexiya kapitali ishtirokidagi kompaniyalar, jumladan, 100 foiz xorijiy korxonalar sonining barqaror o'sish tendensiyasi kuzatilmog'da. Bu chexiyalik investorlarning O'zbekiston bozoriga qiziqishi ortib borayotgani va biznes yuritish uchun qulay sharoit yaratilganidan dalolat beradi.

Madaniyat sohasidagi hamkorlik Chexiya ijodiy jamaolarining O'zbekistonda o'tkaziladigan xalqaro tadbirlarda mustahkam ishtirok etishi bilan tavsiflanadi. Chexiya musiqa ansambllari an'anaviy tarzda Samarqandda o'tkaziladigan "Sharq tonalari" xalqaro festivalida ishtirok etib kelmoqda. Toshkentda UNESCO ko'magida tashkil etilgan xalqaro jaz festivallarida chex jaz guruhlarning chiqishi madaniy muloqotni rivojlantirishga salmoqli hissa qo'shadi.

Teatr va adabiy hamkorlik alohida o'rin tutadi. 2016-yilda Toshkentdagi "Ilhom" teatrida Yaroslav Gashkeknig "Jasur askar Shveykning

sarguzashtlari" romani asosida sahnalashtirilgan spektakl chex adabiy merosining O'zbekiston madaniy mazoniga integratsiyalashuvining namunasini bo'ldi. 2022-yilda Toshkentda Chexiyaning mumtoz va zamonaviy musiqa va she'riyat kechasi ham bo'lib o'tdi.

Ta'lim va ilm-fan sohasi o'zaro hamkorlikning eng jadal rivojlanayotgan yo'nalishlaridan biridir. Ikki mamlakatning yetakchi universitetlari o'rtasida barqaror hamkorlik aloqalari o'rnatilgan, qo'shma ta'lim dasturlari va tadqiqot loyihalari amalga oshirilmoqda.

1997-yildan buyon Chexiya hukumati har yili O'zbekiston fuqarolariga oliy o'quv yurtlarida o'qish uchun stipendiyalar ajratmoqda. Shu bilan birga, akademik mobillikning barqaror ijobiy dinamikasi kuzatilmog'da. Agar 2020-yilda Chexiyada 350 nafarga yaqin o'zbekistonlik talaba tahsil olgan bo'lsa, 2025-yilga kelib, bu ko'rsatkich taxminan 650-700 nafarga yetdi. Ta'limning asosiy yo'nalishlari texnik, iqtisodiy, agrar va AKT mutaxassisliklaridir.

2023-yilda O'zbekistonning turli shaharlarida Chexiyaning yetakchi universitetlari ishtirokida o'tkazilgan ixtisoslashtirilgan ko'rgazmalar, jumladan, "Study in English in the Czech

Republic" turkum tadbirlari ta'lim imkoniyatlarini targ'ib qilishning qo'shimcha vositasi bo'ldi.

Gumanitar aloqalarni rivojlantirishda 2011-yilda Praga shahrida tashkil etilgan Chexiya — O'zbekiston do'stlik jamiyati muhim o'rin tutadi. Tashkilot faoliyati ikki mamlakat jamoatchiligi vakillari o'rtasida o'zaro qiziqishni mustahkamlash, aloqalarni kengaytirishga xizmat qiladigan ilmiy, madaniy va ma'rifiy tadbirlarni o'tkazishga qaratilgan.

O'zbekiston — Chexiya munosabatlarining bugungi holati siyosiy muloqot va parlamentlararo hamkorlikdan tortib, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar hamkorlikkacha bo'lgan barcha muhim yo'nalishlarda izchil rivojlanmoqda.

Zamonaviy xalqaro kun tartibi sharoitida Toshkent va Praga pragmatizm, o'zaro hurmat va bir-birining manfaatlarini hisobga olishga asoslangan o'zaro manfaatli sheriklikni chuqurlashtirishga intilishini namoyish etmoqda. O'zbekiston — Chexiya aloqalarini yanada mustahkamlash nafaqat ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirishga, balki O'zbekistonning Yevropa yo'nalishi bilan o'zaro hamkorligini kengaytirishga ham xizmat qiladi.

Shu ma'noda, Chexiya Bosh vaziri Andrey Babishning O'zbekistonga tashrifi amaliy hamkorlikni yanada kengaytirishda muhim bosqich sifatida baholanoqda. Ushbu tashrif sanoat, energetika, qishloq xo'jaligi va transport-logistika sohalarida qo'shma loyihalarni amalga oshirishga qo'shimcha sur'at bag'ishlashi kutilmoqda.

2026-yil 29-aprel, 84-son



Nuqtayi nazar



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



Jahon iqtisodiyoti va global biznes modeli kun sayin o'zgarib, oldimizga yangi vazifalarni qo'yimoqda. Mamlakatimizda kichik va o'rta biznes islohotlarning asosiy drayveriga aylangan bir paytda tadbirkorlik faoliyatiga noqonuniy aralashuvlarni cheklash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi bo'lib qolmoqda.

Prezidentimizning 2026-yil 17-apreldagi "Tadbirkorlik faoliyatiga noqonuniy aralashuvlarni cheklash va nazorat tadbirlarining shaffofligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonida nazarda tutilgan "Yagona davlat nazorati" axborot tizimi davlat nazoratini tashkil etishning mutlaqo yangi bosqichini boshlab bermoqda. Ushbu tizim orqali tadbirkorlik subyektlari faoliyati ustidan nazorat qilishning an'anaviy, ko'p hollarda inson omiliga bog'liq bo'lgan usullaridan voz kechilib, ular o'rniga to'liq raqamlashtirilgan, shaffof va hisobdor mexanizm joriy etilmoqda.

BIZNESNI HIMOYA QILISHNING YANGI MODEL: nazorat qiluvchi emas, qo'llab-quvvatlovchi tizim



Abdumannop BO'RIYEV,
Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil — biznes-ombudsman

Mazkur tizimning asosiy mohiyati shundaki, u tadbirkorlik faoliyatiga daxldor organlar ustidan ham nazorat o'tirish imkonini beradi. Ya'ni ilk bor "nazorat ustidan nazorat" tamoyili amaliyotga tatbiq etilmoqda. Endi har qanday tekshiruv, uning maqsadi, huquqiy asosi va o'tkazilish tartibi oldindan raqamli platformada ro'yxatga olinadi va nazorat qilinadi. Bu esa tekshiruv jarayonining asosiy tashkil etilishiga deyarli imkon qoldirmaydi.

Farmonga muvofiq, har qanday tekshiruv faqat elektron ruxsatnoma asosida o'tkaziladi. Bu ruxsatnoma o'ziga xos "pasporti" bo'lib, unda tekshiruvni o'tkazuvchi organ, mas'ul mansabdor shaxs, tekshiruvning maqsadi, doirasi va muddati aniq belgilab qo'yiladi. Shu tariqa jarayon aniq chegaralar doirasida o'tkazilishi ta'minlanadi va tekshiruvchilarning vakolat doirasidan chiqib ketishiga yo'l qo'yilmaydi.

Tizimning yana bir muhim jihati tekshiruvlarni "Biznes himoya" QR-kodi orqali identifikatsiya qilish mexanizmidir. Natijada tadbirkor tekshiruvning qonuniyligini mustaqil tekshirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Agar tekshiruv mazkur axborot tizimida qayd etilmagan bo'lsa yoki tegishli ruxsatnoma mavjud bo'lmasa, tadbirkor uni qabul qilmaslik huquqiga ega. Bu esa tadbirkorni nazorat jarayonida passiv subyektdan faol ishtirokchiga aylantiradi va huquqiy himoyasini kuchaytiradi.

"Yagona davlat nazorati" tizimi tekshiruvlarni real vaqt rejimida monitoring qilish imkonini ham beradi. Endi har bir tekshiruvni onlayn kuzatib borish, asossiz yoki qonun talablariga zid holatlarni tezkor aniqlash va zarur choralar ko'rish mumkin.

Tizim inson omilini minimallashtirish orqali korruptsiya xavfini kamaytirishga qaratilgan. Barcha jarayonning raqamlashtirilishi, qarorlarning elektron iz qoldirishi va doimiy monitoring qilinishi noqonuniy aralashuvlar, asossiz tekshiruvlar va mansabdor shaxslarning suiiste'mol qilish holatlarini cheklaydi. Natijada davlat nazorati tizimi adolati va shaffof mexanizmga aylanadi.

Ushbu axborot tizimi tadbirkorlar uchun ham mutlaqo yangi imkoniyatni ochadi. Xususan, ular tekshiruv haqida oldindan xabardor bo'lish, qonuniyligini bilish, noqonuniy harakatlarga rad javobini berish va o'z huquqlarini raqamli asosda himoya qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Umuman olganda, "Yagona davlat nazorati" axborot tizimi davlat va tadbirkorlik subyektlari o'rtasidagi munosabatlarni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi. U orqali nazorat jarayonlari jazolovchi emas, balki tartibga soluvchi va profilaktik mexanizmga aylanadi. Eng muhimi, mazkur tizim tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, ortiqcha ma'muriy bosimdan himoya qilish va mamlakatda sog'lom biznes muhitini shakllantirishga xizmat qiladi.

Noqonuniy tekshiruvlarga murosasizlik tamoyili mazkur farmonning eng qat'iy va prinsipial normalaridan biri bo'lib, tadbirkorlik faoliyatiga asossiz aralashuvlarga batamom chek qo'yishni nazarda tutadi. Mazkur yondashuv orqali davlat tadbirkorni himoya qilish borasida mutlaqo yangi pozitsiyani egallamoqda, ya'ni noqonuniy tekshiruvlarga nisbatan hech qanday murosaga yo'l qo'yilmaydi ochiq-oydin belgilab qo'yilaydi.

Ushbu tamoyilning mohiyati shundaki, endi belgilangan tartib va raqamli tizimdan tashqari o'tkazilgan har qanday tekshiruv avtomatik ravishda noqonuniy deb e'tirof etiladi. Ya'ni tekshiruv "Yagona davlat nazorati" axborot tizimida ro'yxatdan o'tmagan, tegishli elektron ruxsatnomaga ega bo'lmagan yoki belgilangan tartibga rioya etilmagan holatlarda natijasi huquqiy kuchga ega bo'lmaydi. Bu

esa tadbirkorlarning asossiz tekshiruvlardan himoyasini tubdan kuchaytiradi.

Eng muhim jihat shundaki, mazkur tamoyil tadbirkorga noqonuniy tekshiruvni qabul qilmaslik huquqini beradi. Ilgari amaliyotda tadbirkor ko'p hollarda tekshiruvchi talablariga bo'ysunishga majbur bo'lgan. Endi u qonunga tayanib, bunday tekshiruvni rad etishi mumkin. Tadbirkorning huquqiy maqomi sezilarli darajada mustahkamlanib, uning faoliyatiga asossiz aralashuvlar keskin kamaytiriladi.

Ushbu tamoyilning yana bir muhim jihati profilaktik ta'siridir. Ya'ni nazorat organlari xodimlari tekshiruvni boshlashdan oldin uning qonuniy asoslari, tartibi va oqibatlari haqida jiddiy o'ylab ko'rishga majbur bo'ladi. Chunki har qanday noqonuniy harakat raqamli tizimda qayd etiladi va javobgarlikka sabab bo'lishi mumkin. Bu esa asossiz tekshiruvlar sonini sezilarli darajada kamaytiradi.

Shuningdek, mazkur yondashuv davlat va tadbirkor o'rtasidagi munosabatlarni ham sifat jihatidan o'zgartiradi. Nazorat jarayonida ishonch, ochiqlik va qonuniylik ustuvor ahamiyat kasb etadi. Tadbirkor o'z faoliyatini xavfsiz va barqaror muhitda amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Investitsiyaviy jozibadorlikni oshirishga ham xizmat qiladi.

Farmoda ilgari amaliyotda aniq chegaralanmagan, ko'p hollarda esa noto'g'ri talqin qilingan masalalardan biri — davlat organlari va tadbirkorlar o'rtasidagi muloqot tushunchasiga huquqiy aniqlik kiritildi. Unga ko'ra, davlat organlari va tadbirkorlar o'rtasidagi har qanday uchrashuv, maslahatlashuv yoki tushuntirish ishlari nazorat tadbiri hisoblanmaydi va bu jarayondan tekshiruv yoki bosim vositasi sifatida foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

Ushbu tamoyilning joriy etilishi davlat va biznes o'rtasidagi munosabatlar falsafasini tubdan o'zgartiradi. Ilgari amaliyotda "uchrashuv" yoki "o'rganish" niqobi ostida tekshiruv elementlari aralashib ketgan holatlar uchrab turgani sir emas. Bu esa tadbirkorlarda davlat organlariga nisbatan ehtiyotkorlik, ba'zan esa ishonchsizlik muhitini shakllantirgan. Yangi yondashuv esa ana shu salbiy amaliyotlarga barham berishni ko'zda tutadi.

Davlat organlari tadbirkorlar bilan muloqot qilishda nazorat funksiyasidan voz kechib, maslahatchi va hamkor sifatida ishtirok etishi lozim. Mazkur muloqotdan maqsad tadbirkorlik faoliyatini tekshirish emas, balki unga ko'maklashish, tushuntirish berish, huquqiy maslahatlar taqdim etish va yuzaga kelayotgan muammolarni birgalikda hal qilishdan iborat bo'ladi.

Shu bilan birga, mazkur tamoyil muloqot jarayonining ham shaffof va tartibli bo'lishini nazarda tutadi. Xususan, davlat organlari va tadbirkorlar o'rtasidagi uchrashuvlar tegishli axborot tizimlarida qayd etilishi, ularning maqsadi va mazmuni aniq belgilanishi lozim. Bu esa muloqot niqobi ostida nazorat yoki bosim o'tkazish holatlarining oldini olishga xizmat qiladi.

Mazkur tamoyil davlat organlari faoliyatiga ham yangi talablar qo'yadi. Endi ular faqat nazorat qiluvchi emas, balki xizmat ko'rsatuvchi, tushuntiruvchi va qo'llab-quvvatlovchi institut sifatida faoliyat yuritishi kerak. Bu davlat boshqaruvida xizmat ko'rsatish madaniyati va sifatini oshirish uchun g'oyat muhimdir.

Umuman olganda, bu tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan zamonaviy yondashuv bo'lib, davlat va biznes o'rtasidagi munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqadi. Shu tariqa muloqot bosim vositasidan hamkorlik mexanizmgacha aylanadi. Natijada tadbirkorlik muhitida ishonch, ochiqlik va barqarorlik ta'minlanadi. Bu esa mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivoji uchun mustahkam zamin yaratadi.

Farmoda davlat boshqaruvi modernizatsiya qilish va tadbirkorlik muhitini yaxshilashning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida davlat xizmatlarida shaffoflikni ta'minlash masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Mazkur tamoyil davlat organlari faoliyatini ochiq, tushunarli va hisobdor qilish orqali tadbirkorlik subyektlari uchun adolati va prognoz qilinadigan muhit yaratishga qaratilgan.

Davlat xizmatlarida shaffoflik tamoyili farmonning muhim ustunlaridan biri bo'lib, u davlat va biznes o'rtasida ishonchli, ochiq va adolati munosabatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa yangi O'zbekiston sharoitida



zamonaviy, samarali va inson manfaatlariga yo'naltirilgan davlat boshqaruvi barpo etishda muhim qadamdir.

Farmon doirasida tadbirkorlik subyektlarini himoya qilishning institutsional asoslarini mustahkamlash masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Ushbu jarayonda Biznes-ombudsman institutining roli sifat jihatidan mutlaqo yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Mazkur institut endi faqat murojaatlarni qabul qilish va ko'rib chiqish bilan cheklanib qolmay, tadbirkorlik muhitida qonuniyligni ta'minlovchi, nazorat organlari faoliyatini ustidan tizimli monitoring olib boruvchi hamda davlat va biznes o'rtasida institutsional muvozanatni ta'minlovchi markaziy mexanizm sifatida namoyon bo'lmoqda.

Ilgari amaliyotda Biznes-ombudsman ko'proq reaktiv funksiyani bajargan, ya'ni tadbirkor huquqlari buzilganidan so'ng aralashgan institut sifatida faoliyat yuritgan bo'lsa, yangi yondashuv uni proaktiv, ya'ni oldindan ta'sir ko'rsatuvchi institutga aylantirmoqda. Bu esa huquqbuzarliklarni bartaraf etishdan ko'ra, ularning oldini olishga, yakka holatlarni ko'rib chiqishdan ko'ra tizimli muammolarni aniqlashga, oqibatlar bilan kurashishdan ko'ra, sabablarni bartaraf etishga yo'naltirilgan yondashuvni anglatadi.

"Yagona davlat nazorati" axborot tizimi bilan integratsiya mazkur institutga mutlaqo yangi imkoniyatlar yaratadi. Endi u tekshiruvlarning qonuniyligini onlayn tarzda tahlil qilish, asossiz aralashuvlarni barvaqt aniqlash, nazorat organlari faoliyatini baholash va tegishli choralar ko'rish bo'yicha tashabbus ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ladi. Amalda ikki bosqichli himoya mexanizmi shakllanadi.

Biznes-ombudsman institutining yana bir muhim vazifasi — tizimli muammolarni aniqlash va ularga institutsional ta'sir ko'rsatishdan iborat. U takrorlanuvchi huquqbuzarlik holatlarini tahlil qiladi, qonunchilikdagi bo'shliqlar va ziddiyatlarni aniqlaydi hamda ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi.

Shu bilan birga, mazkur institut davlat va tadbirkor o'rtasida muvozanatni ta'minlovchi mexanizm sifatida ham faoliyat yuritadi. U bir tomondan tadbirkorlarni himoya qilsa, ikkinchi tomondan davlat organlarining qonuniy talablarini amalga oshirishga ko'maklashadi.

Axborot texnologiyalarining joriy etilishi Biznes-ombudsman faoliyatini samaradorligini yanada oshiradi. Murojaatlarni qabul qilish, ko'rib chiqish va monitoring qilish jarayonlari raqamli shaklga o'tadi. Tezkorlik va xolislik ta'minlanadi.

Eng muhimi, mazkur institut tadbirkorlar uchun ishonchli huquqiy himoya mexanizmgacha aylanadi. Umuman olganda, Biznes-ombudsman institutining roli kuchaytirilishi tadbirkorlik muhitini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi va davlat hamda biznes o'rtasidagi munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqadi.

Surxondaryoda sanoatni modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish quvvatlarini qayta tiklash va yangi korxonalarni tashkil etish ishlari izchil bajarilmoqda. Natijada hududning eksport salohiyati yildan yilga sezilarli darajada oshmoqda.



Viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotiga ko'ra, 2023-yili 3040 ta tadbirkorlik subyekti faoliyat yuritgan bo'lsa, joriy yil boshida bu ko'rsatkich 4000 taga yetgan. Shuningdek, 2025-yili jami 3151 tadbirkorlik obyekti ishga tushirilgan. Hozir Surxondaryoda 29 ta yirik, 4820 ta kichik sanoat korxonasi mavjud. O'tgan

YENGIL SANOATDAGI ZALVARLI QADAM QUMQO'RG'ONDA XOMASHYODAN MAHSULOT TAYYORLASHGACHA BO'LGAN ISHLAB CHIQRARISH HALQASI SHAKLLANDI



Yurtning obod go'shalari



Ishlab chiqarish jarayonining har bir bosqichida qat'iy sifat nazorati o'tkaziladi. Sifat nazoratida matoning mustahkamligi, zichligi, cho'zilish darajasi va ko'rinishi kabi muhim ko'rsatkichlar aniq o'lchovlar asosida baholandi.

Sherobod kabi chekka hududda bunday loyihalarning ishga tushirilishi aholi bandligini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Masalan, mazkur yigiruv fabrikasida 450 ish o'rni tiklandi. Mato to'qish fabrikasida 180 yangi

ish o'rni ochildi. Bu raqamlar chekka hudud uchun salmoqli ko'rsatkichdir. Ayniqsa, ishchi-xodimlar tarkibi tahlil qilinishida loyihaning jittimoiy holatga yo'naltirilgani yaqqol namoyon bo'ladi.

Sanoatning barqaror rivojida energiya samaradorligi juda muhim. Shu maqsadda kredit mablag'i evaziga korxonada yillik 8,5 million kilovat-soat elektr energiyasi ishlab chiqarish quvvatiga ega loyiha amalga oshirilmoqda. Mazkur tashabbus orqali

korxonalar elektr bilan barqaror ta'minlanadi. Bu, o'z navbatida, korxonaning uzluksiz ish olinishiga kafolatlaydi. Muhimi energiya uchun chiqim qisqarib, mahsulot tannaxri arzonlashadi.

Qumqo'rg'on tumani Azlarsoy mahallasidagi "Qumteks" tekstil fabrikasi ham viloyat sanoatida muhim o'rin tutadi. 2024-yili Qumqo'rg'on tumani sanoat korxonalari 860 milliard so'mni tashkil etgan. 2025-yilda "Qumteks" tekstil fabrikasi ishga tushirilgach, bu ko'rsatkich 50 foiz oshadi. Bundan tashqari, tumandagi doimiy ish o'rni 1000 taga ko'paydi.

Biz muhandis sifatida Qumqo'rg'on tumaniga taklif etilganmiz. Barcha uskunamiz eng zamonaviy va juda yaxshi sifatga ega. Maqsadimiz — korxonada har oyda taxminan 3 million metr tekstil mahsuloti ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish. Hozir bu yerdagi barcha dastgoh ishlamoqda, — deydi turkiyalik muhandis Ayxan Bulut. — Shuningdek, to'qimachilik mahsulotlarini jahon andozalari darajasida ishlab chiqarishga intilyapmiz. Buning uchun sifatli xomashyo, mahalliy aholidan iborat ahil, tirishqoq va yaxshi mutaxassislar bor.

Qumqo'rg'on tumani Azlarsoy mahallasidagi 12 gektar yerda sanoat ishlab chiqarish korxonasi bunyod etilgan. Dastlabki bosqichda mato to'qish va bo'yash seklari ishga tushirildi. Korxonalarining aytishicha, to'quv bo'limining yillik ishlab chiqarish quvvati 18 million pogonometr bo'lib, ushbu sexda 400 dan ortiq ish o'rni ochilgan.

— To'qimachilik sanoati bo'yicha texnolog mutaxassisman, — deydi pokistonlik muhandis Imron Muhammad. — Korxonani zamonaviy texnologiya bilan jihozlashga yordam berish uchun kelganim. Hozir bu yerda barcha texnologik liniyalar birma-bir sinovdan o'tkazilib, mahsulot ishlab chiqarish jarayoniga kirishildi. Ushbu dastgohlar to'liq avtomatlashgan. Inson omili ishtiroki deyarli yo'q. Chunki barcha ishlab chiqarish jarayoni tugmalari orqali boshqariladi. Qisqasi, bularning barchasi jahon standartiga to'la mos keladi.

Zamonaviy texnologiya tufayli korxonada kam energiya sarfi evaziga sifatli mahsulot ishlab chiqarilayotgan. Tayyor mahsulot ichki va tashqi bozorda xaridorini topmoqda.

— To'quv sexida tabiiy, sintetik va aralash tolali turli matolar ishlab chiqariladi, — deydi korxonada rahbari Ubaydulla Fayzullayev. — Har bir mahsulot xalqaro standartlarga muvofiq laboratoriya tekshiruvidan o'tkaziladi. Loyihaning ikkinchi qismida mato bo'yali, gul bosiladi. Sexning bir sutaklik quvvati 100 ming pogonometrni tashkil etadi. Bu yillik 36 million pogonometr mato ishlab chiqarish imkoniyatini beradi.

Korxonada mato yuvishda foydalanilgan suv shunchaki to'kib yuborilmaydi, balki 9 bosqichdan iborat tozalash jarayonidan o'tkaziladi. Shundan so'ng u ishlab chiqarish yoki ekinlarni sug'orishga yaroqli holatga keltiriladi.

Yengil sanoat korxonalarida xalqaro standartlarga mos, yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarish va raqobatbardoshlikni oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda, — deydi pokistonlik mutaxassis Nurmuhammad Zayniy. — Bu borada yurtimizdagi ham salmoqli ishlar qilinaypti. Soha yanada rivojlanmoqda. Bunga misol tariqasida "Qumteks"ni aytish kifoyi. Biz — xorijlik hamkorlar bundan keyin ham ishni birga davom ettirish niyatidamiz.

Sarvar TO'RAYEV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

Yangi farmon

Prezidentimizning joriy yil 10-apreldagi "Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar tizimini takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni taraqqiyotning intellektual, ilmiy va texnologik poydevorini mustahkamlashga qaratilgan bilan alohida ahamiyatga ega. Binobarin unda 2030-yilgacha tizim ilmiy salohiyatini birlashtirish, ilmiy klasterlar tashkil etish, oliy ta'lim muassasalarining akademik, tashkiliy va moliyaviy mustaqilligini kengaytirish orqali O'zbekistonni mintaqadagi ta'lim hamda ilmiy-fan markaziga aylantirish kabi ustuvor maqsadlar aniqlanib berildi.

Farmon faqat oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasini takomillashtirish bo'yicha qabul qilingan hujjat emas. U — davlatning kelajak haqidagi qat'iy pozitsiyasi, millatning intellektual salohiyatiga yuksak ishonchi va taraqqiyotning bilimga tayangan modelining huquqiy ifodasidir.

real iqtisodiy, ijtimoiy va texnologik samaraga aylanishi kerakligi sezilib turadi. Shu ma'noda, farmon oliy ta'lim sohasini yangi bosqichga olib chiqadigan eng muhim hujjatlardan biridir. Chunki unda ilm "sarflanadigan xarajat" o'rni "kelajak qiymatini yaratuvchi investitsiya" sifatida ko'riyafti.

loyihalarni rivojlantirish, ta'lim sifatini dunyo mezonlariga moslashtirish, avvalo, til, muloqot, akademik madaniyat va xalqaro boshqaruv kompetensiyalariga tayangan holda amalga oshiriladi. Demak, mazkur farmon oliy ta'lim muassasalarini jamoasidan ichki intizomdan tashqari global fikrlash, xalqaro akademik maydonda o'z o'rnini belgilashni talab qiladi.

dekan yoki kafedra mudiri faqat ma'muriy tajribaga emas, balki strategik ko'rish, ma'lumot bilan ishlash, xalqaro mezonlarni anglash va raqamli transformatsiya bo'yicha ham chuqur tushunchaga ega bo'lishi kerak. Bu esa oliy ta'lim boshqaruv madaniyatida ham tub yangilanish boshlanayotganini anglatadi.

Ta'lim diplomatiyasi

Farmonda oliy ta'limni xalqaro maydonga olib chiqish masalasiga ham katta urg'u berilgan. Xususan, oliy ta'limni rivojlantirish va global markaz tashkil etish, shuningdek, "Study in Uzbekistan" platformasi orqali chet el fuqarolarini O'zbekiston oliy ta'lim

Raqamli boshqaruv va sun'iy ongga moslashuv

Farmonga binoan, Raqamli ta'lim va sun'iy intellektni rivojlantirish markazi tashkil etiladi. Bu nega kerak? Zamonaviy OTMni faqat

Mablag' emas, samaradorlik markazda

Farmondagi moliyalashtirishga oid yangiliklar ham alohida e'tiborga molik.



INTELLEKTUAL RIVOJLANISH POYDEVORI

ilmiy salohiyat, ta'lim sifati, bitiruvchi tayyorlash darajasi va boshqaruv samaradorligi asosida baholanadi. Bu esa universitetlarni tabiiy ravishda yangilanish, ichki safarbarlikni kuchaytirish, sog'lom raqobat muhitida ishlashga undaydi.

Ayniqsa, farmonda 2027-yildan boshlab oliy ta'lim tashkilotlari milliy reytingini joriy etish, reyting natijalariga qarab tabaqalashtirilgan rag'batlantirish mexanizmlarini qo'llash, har bir talaba uchun bazaviy xarajatlarni ko'rsatkichlarga qarab shakllantirish kabi yondashuvlarning belgilanishi alohida ahamiyatga ega. Bu, bir tomondan, mablag' taqsimotida shaffoflikni kuchaytirsa, ikkinchi tomondan, "kim yaxshi ishlaya, ko'proq imkoniyatga ega bo'ladi" degan adolatlilik mezonni tizimga olib kiradi. Oliy ta'lim sifatini oshirishda aynan mana shunday iqtisodiy rag'bat va institutsional javobgarlik uyg'unligi eng samarali vositalardan biridir.

Ilmiy klasterlar — davrning asosiy talabi

Farmonning yana bir muhim jihati ilmiy tadqiqot universitetlari va ilmiy klasterlar tizimini rivojlantirishga qaratilganidir. Hujjatga ko'ra, ustuvor yo'nalishlar bo'yicha tanlov asosida g'olib bo'lgan oliy ta'lim muassasalariga milliy tadqiqot universiteti maqomi berilishi, mahalliy hamda nufuzli xorijiy oliy ta'lim va ilmiy tashkilotlar bilan hamkorlikda yaxlit ilmiy-ta'limiy tizimlar shakllantirish ko'zda tutilgan. Mazkur yondashuvning mohiyati juda chuqur: universitet endi auditoriya bilan laboratoriya, laboratoriya bilan ishlab chiqarish, ishlab chiqarish bilan bozor o'rtasidagi zanjirni bog'laydigan markazga aylanishi kerak. Bu, eng avvalo, ilm-fanning amaliy samaradorligini oshiradi. Yillar davomida ko'plab mamlakatlarda bir muddat kuzatildi: ilmiy maqola bor, lekin amaliy mahsulot yo'q; dissertatsiya bor, lekin ishlab chiqarishga kirib borgan yechim yo'q. Farmon aynan shu uzilishni bartaraf etishga qaratilgan. Chunki unda tadqiqotning natijasi faqat himoya qilingan ilmiy ish yoki chop etilgan maqola emas, balki



muassasalariga keng jalb qilish, har yili muayyan kvota asosida xorijiy talabalarni grant va stipendiyalar bilan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining belgilanishi mamlakatimiz ta'lim salohiyatini eksport qiluvchi darajaga ko'tarish yo'lidagi katta qadamdir.

Bu tashabbusning siyosiy va ma'naviy ahamiyati ham katta. Chunki bugun xalqaro nufuz faqat diplomatik missiyalar yoki iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan emas, balki universitetlar jozibadorligi bilan ham o'lchanadi. O'zbekiston bugun ana shunday ta'lim diplomatiyasining yangi bosqichiga chiqmoqda. Bu esa, o'z navbatida, davlatimizning ochiqlik siyosati, mintaqaviy hamkorlik va global integratsiya strategiyasi bilan uyg'unlashadi.

Andijon davlat chet tillar instituti kabi oliy ta'lim muassasalarini uchun bo'lab mas'uliyat yuklaydi. Chunki xorijiy talabani jalb etish, xalqaro dasturlarni kengaytirish, qo'shma

o'quv binosi va auditoriyalar bilan tasavvur qilib bo'lmaydi. U, eng avvalo, raqamli boshqaruv, tekzor tahlil, to'g'ri qaror qabul qilish, ma'lumotlar asosida strategiya ishlab chiqish va individual ta'lim trayektoriyalarini boshqarish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar, raqamli monitoring va integratsiyalashgan axborot tizimlari bugun boshqaruv madaniyatining mezoniga aylanmoqda.

Aynan shu jihatdan farmon oliy ta'limni "kechagi model" bilan boshqarish davri tugayotganini ko'rsatadi. Endi universitetni samarali boshqarish uchun rektor, prorektor,

Unga ko'ra, oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirish uchun qo'shimcha resurslar ajratiladi.

Joriy yilda respublika byudjetidan 20 milliard so'm, 2027-yildan boshlab esa har yili 70 milliard so'm mablag' Oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirish jamg'armasiga yo'naltiriladi. Bundan tashqari, davlat grantlarini filiallar va nodavlat oliy ta'lim tashkilotlariga ham raqobatli mexanizm asosida taqsimlash tartibi belgilangan.

Bu nimaning anglatadi? Avvalo, oliy ta'limda yangi moliyaviy tafakkur shakllanayotganini anglatadi. Tizim endi faqat markazdan berilgan mablag'ni o'zlashtirish maqsadida emas, balki sifat, natija, salohiyat va strategik ustuvorlikka ko'ra resurs jalb qilish mantig'i bo'yicha ishlaydi. Bunday model intizom, tashabbus, aniq reja, ichki islohot va samaradorlik talab qiladi. Lekin uzoq muddatli taraqqiyot aynan

mana shunday mas'uliyatli model asosida ta'minlanadi.

Oliy ta'lim muassasalarini uchun bundan muhim xulosa shuki, endi institut va universitetlar kelajagini o'z strategiyasi, jamoasi, ilmiy maktabi va tashabbuslari bilan belgilaydi. Bu esa mustaqillikni kengaytiradi, biroq ayni paytda javobgarlikni ham oshiradi. Mustaqillik va javobgarlik uyg'unligi bo'lmagan joyda esa haqiqiy taraqqiyot bo'lmaydi.

Hududiy OTMlar uchun tarixiy imkoniyat

Farmonning yana bir jihati, u hududiy oliy ta'lim muassasalarini uchun ham mutlaqo yangi imkoniyatlar eshigini ochadi. Chunki ilmiy klaster, reyting, grant, xalqaro hamkorlik, raqamli boshqaruv va xorijlik talabalar bilan ishlash kabi mexanizmlar faqat bir nechta markaziy universitetning imtiyozlari emas, balki salohiyat va tashabbus ko'rsatadigan har qanday oliy ta'lim muassasasi uchun ochiq maydondir. Shu jihatdan u Andijon davlat chet tillar instituti jamoasini ham yanada faol ishlashga undaydi. Endi biz faqat xorijiy til mutaxassislarini tayyorlash bilan cheklanib qolmasligimiz kerak. Zamonaviy pedagogika, tarjimonlik, xalqaro kommunikatsiya, ta'lim texnologiyalari, akademik yozuv, raqamli tilshunoslik, madaniyatlararo muloqot, sun'iy intellekt asosidagi til ta'limi kabi yo'nalishlarda ham yangi ilmiy va amaliy maktablar barpo etishimiz lozim. Chunki bugungi oliy ta'limning bosh mezonlari zamonadan oldin yurishdir.

Farmon faqat oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasini takomillashtirish bo'yicha qabul qilingan hujjat emas. U — davlatning kelajak haqidagi qat'iy pozitsiyasi, millatning intellektual salohiyatiga yuksak ishonchi va taraqqiyotning bilimga tayangan modelining huquqiy ifodasidir. Mamlakatimiz kelajagi bugungi auditoriyalarda, laboratoriyalarda, kutubxonalarda, ilmiy markazlarda va innovatsion maydonlarda barpo etiladi. Farmon ana shu buyuk bunyodkorlikka huquqiy yo'l ochadi.

Dolzarb mavzu

Bahorning iliq kunlaridan biri. Atruf chechaklarga burkangan, yo'lak chetlarida anvoyi gullar shahar ko'rkiga ko'rk qo'shib turibdi. Gavjum ko'chalar, mashinalar shovqini, odamlar oqimi, har kim o'z tashvishu quvonchi bilan ketayotgandek, Farhod uchun bugun o'zgacha kun. U giyohvandlikka qarshi volontyorlik harakatiga a'zo bo'ldi. Mas'uliyat va ishinging nozik jihatlari haqida o'ylagancha yo'lak bo'ylab ketar ekan, odamlar ruhiyatini o'rganish, har bir insonning ichki holatini his qilishga urinadi. Odamni to'g'ri yo'ldan adashtiradigan narsa ichki bo'shliq, tushkunlik yoki e'tiborsizlik ekanini u yaxshi biladi.



GIYOHVANDLIKKA QARSHI VOLONTYORLIK HARAKATI

ular yaratgan muhitda sog'lom turmush me'yorga aylanadi

Kishi gavjum joylarda ham yolg'iz bo'lishi mumkin. Bekat orqasida kulib turgan tengqurlari yuz-ko'zida shuni ilg'adi. Ularga yaqinroq borib so'z qotdi: hormanglar, kimnidir kutayapsizmi?

Yigitlar bir-biriga yalt etib qaradi. Garchi ularning yuzi sokin bo'lsa-da, ichki g'alayonini sezish qiyin emasd. Ko'rdiki, ishlar joyida emas. Farhod tengdoshlari bilan tinch va do'stona suhbatlashishga qaror qildi. Dastlabki qiziqish keyingi ko'ngilsizliklarga boshlashi, ko'p nojo'ya ishlarning oldini olish mumkinligi, vaziyat qanday bo'lishidan qat'i nazar, har bir inson buni uddalashiga ishonchi komilligini aytdi.

Ba'zan katta kurash tasodifiy uchrashuvdagi kichik suhbatdan boshlanadi. Farhod keyinchalik ham bu muloqotni davom ettirdi. Kimnidir noto'g'ri yo'ldan qaytardi, bir insonning hayotini, qaysidir oila salomatligi, butunligini saqlab qoldi.

BMT ma'lumotiga ko'ra, dunyoda 300 milliondan ortiq odam giyohvandlik moddalarini ta'siriga tushib qolgan. Har yili 600 mingga yaqin inson shu illat qurboniga aylanmoqda. Bugungi globalshuv sharoitida bunday xavf-xatar O'zbekistonda ham chetlab o'tayotgani yo'q.

Yurtimizda giyohvandlik va narkoinjonyatlarga qarshi kurashish borasida e'tiborga molik ishlar qilinayapti. Yaqinda Samarqandda bo'lib o'tgan "Jamoat salomatligi va xavfsizligini ta'minlash maqsadida transmilliy narkotikdirlarga qarshi kurashish" mavzusidagi xalqaro forum ham buning tasdig'i. So'nggi yillarda sohada idoralararo hamkorlikni mustahkamlash, profilaktika mexanizmlarini rivojlantirishga qaratilgan 20 dan

ortiq qonun hujjati qabul qilindi. Bu muammoga tizimli va uzluksiz yondashuv shakllanganini ko'rsatadi. 2024-yilda narkotiklarga qarshi kurashish bo'yicha milliy strategiya qabul qilingani bu boradagi eng katta qadam bo'ldi.

Natijada keyingi yillarda narkotiklarning noqonuniy aylanmasi bilan bog'liq jinoyatlarini aniqlash ko'rsatkichi 2,5 barobar oshdi. Musodara qilingan giyohvandlik vositalari 2 barobar, yo'q qilingan sintetik narkotiklar 7 barobar ko'paydi. Birgina o'tgan yilning o'zida huquq-tartibot idoralari tomonidan 15 mingdan ziyod narkoinjonyat fosh etildi. Qariyb 3,5 tonna giyohvandlik vositalari, jumladan, 120 kilogramm sintetik narkotik yo'q qilindi, 14 ta yashirin narkolaboratoriya va 72 ta yirik internet-do'koni faoliyatiga chek qo'yildi.

Ko'rilgan chora-tadbirlarga qaramay narkoinjonyatlarining uchdan biri yoshlar tomonidan sodir etilayotgani, asosiy xavf guruhini 15 yoshdan 30 yoshgacha bo'lganlar tashkil qilayotgani bu illatning aholi genofondiga naqadar katta tahdid ekanini ko'rsatib turibdi.

Yoshlar ishlari agentligi tomonidan "Anti-narko" yoshlar ofislari tashkil etildi. Ularda faol yoshlar ishi boshlandi. Qisqa muddatda — atigi 2 oyda ushbu tizim amaliy natijadorligini namoyon etdi. Jumladan, faoliyat davomida 17 mingdan ortiq murojaat qabul qilindi, saralash natijasida 2134 nafar faol yosh koordinatordan iborat tarmoq shakllantirildi. Mazkur koordinatordalar joylarda profilaktika tadbirlarini o'tkazishga jalb etildi.



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

— Koordinatorlar uchun dastlab o'quv seminari tashkil etiladi. Malakasi oshirilganidan so'ng ularga volontyorlik sertifikatini beriladi, — deydi "Anti-narko" yoshlar ofisi koordinatori Kamola Nizomiddinova. — Volontyorlar maktab va universitetlarda profilaktik tadbirlar o'tkazadi. Talabalar, o'quvchilar bilan bilim va ko'nikmalarini o'rtoqlashadi. Ularni ham "Anti-narko" yoshlar harakatiga taklif etadi. Volontyor o'zgalari bilan muloqot qilayotganda qarshisidagi insonni tushunishi, vaqtini qizg'annasligi, ishonch uyg'ota bilishi, sabrnga o'rgatish kerak. Faollik, muomala madaniyati, iroda va chidam, mas'uliyat talab qilinadi. Onlayn seminarlar orqali bilimlar muntazam yangilab boriladi.

Yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish uchun 200 koordinatordalar maxsus amaliy treninglardan o'tkazilib, zarur ko'nikmalar bilan ta'minlandi. 5500 dan ortiq yoshlar onlayn o'quv seminarlarida ishtirok etib, olgan bilimni imtihon orqali mustahkamlash va malaka sertifikatiga ega bo'ldi. O'quv seminarlarida psixologlar, ichki ishlar inspektorlari ishtirokida narkotik turlari, ulardan saqlanish, aniqlash va zarur choralar ko'rish ko'nikmalari beriladi. Bu volontyorlarning keyingi faoliyatida qo'l keladi.

Muammoning oldini olishda targ'ibot ishlari alohida ahamiyatga ega. O'z o'rnida ishlatilgan va ta'sirchan targ'ibot materiallari yoshlarning xabardorligini oshirishga xizmat qiladi. Shaharlar, ko'chalar va jamoat joylarida joylashtirilgan bannerlar, aholini to'g'ridan to'g'ri xabardor qiluvchi bukletlar, OTM va maktablarda faol tarzda o'tkazilgan ochiq muloqotlar, seminarlar kabi targ'ibot tadbirlari ana shu vazifani bajarilmoqda.

"Anti-narko" yoshlar harakati tomonidan ijtimoiy tarmoq platformalarida 60 dan ortiq keng qamrovli mediatarg'ibot o'tkazildi. Natijada sog'lom turmush tarzini targ'ib qiluvchi kontentlar ishlab chiqish va tarqatish hajmi sezilarli oshdi.

— Ijtimoiy tarmoqlarda giyohvandlikka qarshi targ'ibotlar o'tkazamiz, — deydi suhbatdoshimiz. — Masalan, yaqinda ijtimoiy so'rovnomma uyushtirdik. Giyohvandlikning oldini olish uchun nima qilish kerak degan savol bilan yoshlarga yuzlandik. Qisqa metrajli videolavhamiz tez tarqaldi. Ko'p ko'rilgani esa ayrim tengdoshlarimizning ehtimoliy xato qarordan qaytishiga samarali ta'sir qilgan degan umid uyg'otadi. Qolaversa, bu muayyan auditoriyaning qarashlarini o'zgartirgan bo'lsa, demak, sa'y-harakatlarimiz besamar ketmayapti.

"Anti-narko" yoshlar ofisi tayyorlagan podkastda asr vabosiga qaram insonning kechinmalari olib chiqildi. Ko'tarilish va qulash, yolg'izlikdan qochish, bog'lanib qolish, yo'qotilish, aybdorlik hissi va tuzalish yo'lga kirish haqidagi hikoya yoshlarni giyohvandlikning ayanchli oqibatlaridan ogoh etib, undan saqlanishga undaydi. Amaliy chora doirasida 20 dan ortiq "qizil hudud"da monitoring va nazorat kuchaytirildi. Qirqdan ortiq tuzilaydigan o'tkazilib, noqonuniy narkograffitalar bartaraf etildi.

Maqsad — mamlakat xavfsizligiga, inson hayoti va salomatligi, odamlarning kelajagiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan illatning oldini olish, yoshlarda giyohvand moddalar iste'moliga qarshi mustahkam immunitet, narkoinjonyatlarga nisbatan murosasiz muhit yaratish. Bunday muhitda sog'lom turmush me'yorga aylanadi. Sog'lom fikrli, bilimli yoshlar esa mamlakat ravnaqiga munosib hissa qo'shishi shubhasiz.

Risolat MADIYEVA, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

Munosabat

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan 2022-yildan boshlab har ikki yilda bir marta qadim va betakror Xiva shahrida "Lazgi" xalqaro raqs festivali o'tkazib kelinmoqda. Ayni tashabbusga asos bo'lgan qarorning o'z vaqtida qabul qilinishi san'at ahlini ruhlantirib, faoliyatimizga o'zgacha bir shijoat va kuch bag'ishladi. Mazkur tashabbus tarixiy, qadimiy va betakror kuyimiz hisoblangan "Lazgi"ni asrab-avaylashga, zamonaviy ijro uslublarini yanada takomillashtirishga, olimlar va ijrochi mutaxassislar tomonidan uning ijtimoiy-tarixiy ildizlari, milliy va umumbashariy qadriyatlar bilan bog'liq jihatlari chuqur o'rganilishiga xizmat qiladi.

Bugungi kunda yuqoridagi qaror va undagi "Lazgi"ni ulug'lash yo'lidagi egzu tashabbuslar to'la-to'kis ijroga ko'chdi. Qarorda ko'rsatilganidek, aprel oyining 25-30 sanalarida tashkil etilishi rejalashtirilgan tadbir o'z vaqtida o'tkazib kelinayotgani quvonarli. Zero, festivalni o'tkazish nasabi aniq belgilanishi dunyoning eng chekka nuqtalaridagi ishtirokchilar uchun ham avvaldan tayyorgarlik ko'rish imkonini beradi. Bu esa qatnashuvchilar safi kengayishiga va tadbir yanada jozibali o'tishiga zamin yaratadi.

Nufuzli xalqaro tadbir ko'ha Ichanqal'ada o'tkazilishi xavallari uchun yana bir yangi bayramga aylandi. Xalqimiz uchun esa bu milliy madaniyatimiz va san'atimizning go'zal qirralarini namoyish etish imkoniyatidir.

Bu gal ham tarixiy Ichanqal'a "Lazgi"ning turfa ohanglariga to'ldi. Qay yonga boqmang, festivalga juda katta taraddud ko'rilganiga guvoh bo'lasiz. Ishirokchilarning yuz-ko'zida tabassum. Ularning aksariyati bu jamnatkamon diyorga takror kelgan va yana kelishini aytmogda. "Lazgi" III xalqaro raqs festivalida dunyoning 30 dan ortiq davlatidan iste'dodli raqqosalar, professional raqs

jamoalari, raqs san'ati ustalari, musiqashunos va san'atshunos olimlar, taniqli san'atkorlar, yetuk mutaxassislar hamda faxriy mehmonlar ishtirok etmoqda.

"Lazgi" xalqaro raqs festivali mamlakatimizning madaniy diplomatiyasida muhim o'rin tutadigan strategik platformadir. Ushbu anjuman xalqaro madaniy brend sifatida shakllanib, uning geografiyasi va ishtirokchilarining soni yil sayin ortib borayotgani, bugungi festivalda dunyoning o'nlab mamlakatlaridan yuzlab san'atkorlar, raqs jamoalari, olimlar va ekspertlar ishtirok etayotgani diqqatga sazovordir", deyiladi davlatimiz rahbari tabrigida.

Darhaqiqat, festival tufayli azaliy mehmondo'stligimiz va bag'rikengligimiz yanada kengroq namoyon bo'ldi. Festivalni tashkillashtirish va ko'ngildagidek o'tkazish borasida yildan yilga ortib borayotgan tajribamiz tabarruk sahnada bor bo'y-basti bilan aks etdi.

Shu paytga qadar UNESCO shafeligida o'tkazib kelingan mazkur festivalga 2026-yildan boshlab TURKSOY xalqaro tashkiloti ham shafelik qilayotgani butun san'at ahlini va biz — tashkilotchilarni bag'oyat mamnun etdi. Chunonchi, o'zbek raqs san'ati gulloji bo'lgan "Lazgi" uch ming yillik tarixga ega bo'lsa-da, bugungi kunda ham o'zida zamonaviylik bilan birga milliy ruhni birdek saqlab qolgan va amalda ifoda etib kelayotgani bilan qimmatli. Shuning uchun u yangrang zahoti yoshu qari birdek quvnaadi, zavqlanadi. Bu kuy hatto san'ati eng rivojlangan mamlakatlarni ham o'ziga rom eta oladigan qudratli kuchga aylandi.

"Lazgi"

DILLARNI BIR-BIRIGA BOG'LOVCHI KO'PRIK



Prezidentimiz tabrigida yangi O'zbekistonda madaniyat va san'at rivojiga ustuvor ahamiyat berilayotgani, xususan, milliy raqs san'atini yuksaltirish, sohada yuqori malakali kadrlar tayyorlash borasida keng ko'lami ishlar qilinayotgani tilga olindi. Ayniqsa, xoreografiya sohasida zamonaviy ta'lim tizimi yo'lga qo'yilgani, mashhur "Bahor" ansambli faoliyati

qayta tiklangani, "Lazgi" ansambli va boshqa ijodiy jamoalar qo'llab-quvvatlanayotgani alohida ta'kidlangani ham milliy raqs san'atimizga chuqur ehtirom namunasi bo'ldi. Toshkent davlat milliy raqs va xoreografiya oliy maktabining akademiyaga aylantirilishidan maqsad ham ilmiy salohiyatni yuksaltirish hamda milliy raqs san'atimiz

dong'ini dunyoga kengroq taratishdir, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Nufuzli festival doirasida har gal ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazib kelinadi. Raqs tanlovi turfa milliy raqsimizning badiiy qirralari va butun jozibasini namoyon etsa, ilmiy muhit madaniy merosimiz targ'iboti uchun qulay platforma bo'lib xizmat qiladi. Bu yil ham "Jahon madaniy taraqqiyotida raqs san'ati: an'ana va umumbashariy qadriyatlar" mavzusidagi konferensiyaga astoydil tayyorgarlik ko'rdi. Tashkilotchilarga kuch bag'ishlayotgan asosiy jihat shundaki, konferensiya doirasida yildan yilga mehmonlarimiz safi kengayib, olimlar soni ortib bormoqda. Markaziy Osiyo davlatlaridan tashqari Belarus, Rossiya, Turkiya, Serbiya, Braziliya, Janubiy Koreya, Yaponiya, Ispaniya, Misr, Buyuk Britaniya, Fransiya, Gruzviya va Hindiston kabi mamlakatlardan ham vakillar kelmoqda. Amerika Qo'shma Shtatlari, Avstriya, Iordaniya, Meksika, Gana va Italiya singari mamlakatlar vakillari esa onlayn tartibda ishtirok etishini bildirdi. Ishirok etish qay tartibda bo'lmasin, konferensiyaning asosiy vazifasi ilm-fanni rivojlantirishdir. Zero,

shu paytgacha raqs san'ati va raqs ilmi ga nisbatan kamroq ahamiyat berilar edi. Festival doirasida biz aynan shu jihatlarga urg'u berib, hamkorlikda ilmi rivojlantirmoqdamiz. Binobarin, milliy raqsimizni sevim ijro etar ekanmiz, uni kelajak avlodlarimizga ham bekamu ko'st meros qoldirishimiz kerak. Bu esa jiddiy ilmiy ishlar qilishni talab etadi. Ilmiy ishlarimiz va tadqiqotlarimizni kitoblar holida qoldirmasak, noyob ma'lumotlar yo'qolib ketishi mumkin.

Mamlakatimiz san'ati dunyo miqyosida keng targ'ib etilib, "Lazgi" raqsi ko'plab xorijliklarni lol qoldirayotgan ekan, biz ilmiy ishlar va ijodan sira to'xtamasligimiz kerak. Zero, bugungi globalashuv davrida, turli tahlikali vaziyatlar yuz berayotgan bir paytda xalqlarning ezgulik yo'lida birlashishiga va bir-birining milliy madaniyatini qadrlashiga xizmat qilish ulkan sharafdir. Dunyo san'ati vakillarini bir maydonga jamlab, do'stlik rishtalarini yanada mustahkamlayotgan "Lazgi" miz umrboqiy bo'lsin!

Shuhrat TO'XTASIMOV,
professor

Mahalla hunarmandi

— Hormang, qo'shni. Shu yog'och kerak bo'lmasa, menga bering, — dedi Zubaydulla aka darvoza yonida anchadan beri yotgan, bir paytlar qurib qolgan uchun kesib tashlangan daraxt tanasiga ishora qilib. — Qayerda o'tin, shox-shabba yotgan bo'lsa, nazaringizdan chetda qolmas ekan-da, usta. Nimaga kerak bo'ldi bu? — deya qo'shni unga savolomuz qiyofada boqdi. — Nimasini aytasiz. Shu ko'zimga boshqacha ko'rinyapti-da. Agar bersangiz, rahmat aytardim...

U allaqachon bu yog'ochdan xayolida turli shakllar yasab, ko'ngli yorishib yurgandi.

— Bu qurigan daraxt o'choqdan boshqasiga yaramaydi. Hademay qish keladi, tarasha qilib, pechkaga yoqamiz. Hama uchto'rt kunga yaraydi.

— Bekorga yoqib, kul qilib yuborarkansiz-da, — dedi usta achinib va yog'ochga terimlib qoldi. Yaqinroq borib, ag'darib ko'rdi. O'zicha nimalarnidir xomcho'tladi. Shu o'tinda bir noyob xususiyat bordek qo'shni

ham yaqin kelib e'tibor bilan qaradi. Hech narsani sezmedi. Oddiy tut yog'ochi. Hech bir qimmatbaho jihatinu bilmadi.

— Shu o'tinning nimasiga qiziqdingiz, bilmadim. Lekin sizga bersam, o'tinsiz qolaman, qo'shni. Yaxshisi, qo'ying. Ertandin o'g'lim ikkimiz maydalab, ichkariga kiritib olamiz. Xafa bo'lmaysiz...

— Qo'shni, keling, kelishaylik. Sizga o'tin kerak bo'lsa, o'miga o'tin beraman. Menga buni berasiz. Shunda hech muammo qolmaydi. Qo'shni rozi bo'lmaslikdan o'zga chora topolmadi.

— Xo'p, sizning eshik-rom yasaydigan usta ekaningizni bilaman. Ammo buni nimaga ishlatishingizni aytin. Shunda rozi bo'laman.

— Mayli-mayli, faqat hozir emas. Bir oz vaqt berasiz, keyin sirini aytaman.

Bu gap qo'shni yanada qiziqtirib qo'ydi. U shu kuni qurigan daraxtni ko'tarib ketayotgan



san'at

usta bilan o'g'lining ortidan afsuslangandek qarab qoldi. "Biron bahona topib, oldinroq ichkariga kiritib qo'ysam bo'larkan. Hay, mayli. Nimaga ishlatishini aytaman, dedi-ku", deya o'zini yuypatgan bo'ldi.

Oradan vaqt o'tdi. Qo'shni har safar ustani ko'rganda quyuq so'rashib, gap orasida yog'och tanasining siri haqida gap ochib qolar, deya umid bilan boqardi. Lekin ustaning hali-beri bu haqda so'z ochish niyati yo'q. Oradan ikki hafta o'tgach, sabri tugagan qo'shni so'rashga majbur bo'ldi. Usta esa: "Oz qoldi. Ko'rasiz. Faqat oxirgi ishi qoldi xolos", deya qutuldi.

... O'sha kuni qo'shnisining roziligini olib, kundani ichkariga olib kirgan Zubaydulla aka o'zida yo'q xursand edi. Axir bunday quruq yog'och bo'lagi hamisha ham topilavermaydi. Yaxshi jihati kunda tutniki, undan ajoyib buyumlar yasash mumkin.

Qo'shni kelib, qaytarib olib ketadigandek, usta darhol qo'lga tesha olib, ishga kirishdi. Avval kundani yaxshilab tozaladi, ortiqcha joylarini yo'ndi. Ustini tekislab, uchto'rt qismga bo'lib arraladi. Bo'laklangan g'o'larni obdon aylantirib ko'rdi. Nima yasash mumkinligini chamaladi. Dastlab lavh yasashga kirishdi. Bir oz murakkab, ko'p vaqt talab qiladi, lekin chiroyli chiqishiga ishonadi.

Oradan yigirma kunga yaqin vaqt o'tdi. Zubaydulla aka qo'shni usiga chaqirdi. Ustaxonasiga yetaklab kirib, o'sha kuni bergan yog'ochidan nimalar yasaganini ko'rsatdi. Stol ustida ikkita lavh, yana bir-biridan bejirim qutichalar turardi. Bularni ko'rib, qo'shni hayratdan yoqa ushladi. Oddiy yog'ochdan shunday buyumlar tayyorlanganiga ishonmasdi. Bir muddat buyumlarning naqadar chiroyli yasalganiga mahliyo bo'lib qoldi. Ustaga yog'ochni bermay, qizg'angani yodiga

tushib, uyaldi. Olovga tashlasa, bir zunda kulga aylanib ketishi mumkin bo'lgan daraxt tanasidan mahorat bilan foydalana olgani uchun ustaga tasanno aytishdan nariga o'tolmadi. Usta ham qo'shni quruq qo'l bilan chiqarmadi. Bejirim qutichalardan birini unga sovg'a qildi...

Zubaydulla Sattorov bolaligidan rasm chizishga qiziqardi. Ayniqsa, naqshlarni ajoyib chizardi. Ustozlari uning iqtidoriga qoyil qoldi. Keyinchalik u yog'och o'yamkorligi bo'yicha ham tajriba oshirib bordi. Maktabni tugatgach, o'sha paytdagi Respublika rassomlik bilim yurtiga o'qishga hujjat topshirdi. Bilim yurtiga nomzodlar iqtidoriga qarab, saralab olindirdi. Kasbi tumanining olis Mesit mahallasida tug'ilib o'sgan yigitning chizgan rasmlarini birma-bir ko'zdan kechirarkan, hay'at a'zolari shubha bilan qaradi. Boshqa birovga chizdirib kelgan degan gumonda yigitning qo'lga qalam tutqazishdi. Hech ikkilanmay aytigan suratni qisqa muddatda chizib bergan Zubaydulla o'qishga qabul qilindi.

— Bilim yurtida besh yil yog'och o'yamkorligi yo'nalishi bo'yicha tahsil olganman, — deydi Zubaydulla Sattorov. — O'sha paytlari bilim yurtida o'qish besh yillik edi. Shu jarayonda ustozlar ko'magida ko'p narsa o'rgandim. Tajriba ortirib, qishloqqa qaytdim. Lekin bu kasb bilan nafaqat mahallamizda, balki tumanda biror kishi shug'ullanmasdi. Maktabga ishga kirib, yoshlarga o'rgata boshladim. Keyinchalik uyda o'zim ustaxonam ochdim. Tanishlarimdan yong'och, tut daraxtlari yog'ochini olib kelib, ishlov berishni yo'lga qo'ydim. Turli shaklda yasagan, naqshinkor buyumlarni sotish mummmo edi. Tayyorlagan buyumlarim esa asosan esdalik sovg'alardir. Bu ko'proq sayyohlarni qiziqtiradi. Tumanimizda u paytlari xorijliklar keladigan biror joy yo'q. Hamkasblarimdan maslahat so'radim. Ular

Samarqanddagi tadbirkorlar bilan hamkorlik qilishimni maslahat berdi. Samarqandga borib, aynan turistlarga xizmat ko'rsatuvchi ish bilan munosabatda bo'lgan kelishuvga erishdim. Hozirga qadar tayyorlagan buyumlarimni shu kishi sotib oladi.

Oddiy yog'och bo'lagiga naqsh solib, ajoyib san'at asari yaratish oson ish emas. Ustaning aytishicha, bitta buyum uchun kamida bir hafta vaqt sarflanadi. Buning uchun sabrli bo'lish kerak. Qolaversa, naqsh solish oddiy yumushmas. Eng avvalo, ustaning rassomlikdan xabari bo'lishi kerak. Boisi, dastlab yog'ochga tasvir chizilib, keyin o'yib chiqiladi. Bundan tashqari, o'ziga xos badiiy estetika ham kerak. Buning uchun ham odam kitob o'qigan, milliy qadriyatlarimiz, tariximiz haqida yetarli darajada bilimga ega bo'lishi lozim.

— Bugun Qashqadaryoda bu uslubda ishlovchilar juda kam, — deydi usta. — Hozir ko'pchilik elektrikli texnikalardan foydalanishga o'tib ketgan. Men faqat qo'l mehnatida ishlayman. Ustozlarim shu uslubda o'rgatgan. Shuning uchun ko'p vaqt sarflashga to'g'ri keladi. Qo'l tayyorlanadigan mahsulotlarning qaysi daraxtdan yasalganiga e'tibor qaratis kerak. Misol uchun, tut bilan yong'och kabi daraxtlarning bo'laklaridan chiroyli buyumlar yasash mumkin. Boshqalari bo'sh bo'lgani sababli tez sinib ketadi.

Hunarini mehr bilan bajarayotgan ustaning ishini bir muddat kuzatdik. Turli hajmdagi o'yamkorlik uskunalaridan mahorat bilan foydalanadi. Kichik, dumaloq shakldagi idishchanning tashqi tomoniga chiroyli shakl berib ko'rsatadi. Yon tomondan tayyor buyumlar terib qo'yilgan. Tayyorlangan har bir buyum ustaning chanchalik mahorati ekanini ko'rsatib turibdi. Zubaydulla Sattorovning aytishicha, qo'l mehnati yordamida tayyorlangan mahsulotlarga xorijliklarning qiziqishi baland. Mavsum vaqtda shu hunari ortidan yaxshigina daromad topadi. Kelgusida Kasbi tumanidagi Sulton Mir Haydar o'ta ziyoratgohi oldida ustaxonam ochib, shu yerda savdoni yo'lga qo'yish rejasini bor. Qolaversa, ikki shogird olib, ularning ham bandligini ta'minlashni maqsad qilgan.

Akbar G'OZIYEV,
jurnalist

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati DM

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma G-446.
30821 nuxxada bosildi.

Hajmi — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Navbatchi muharrir: Jonibek Alijonov
Musahhih: Sherzod Mahmudov
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

O'za yakuni — 23:00